

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI

RAJABOV DILSHOD IBODULLAYEVICH

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘ZBEK
MILLIY MUSIQASI ORQALI
TARBIYALASH**

5141600-boshlang‘ich ta’lim va tarbiyaviy ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar p.f.n.,dots.Yusupov X.Yu.

Bitiruv malakaviy ishi maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil «__» maydagi majlisida muhokam qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №__).

Kafedra mudiri

p.f.n.,dots.Doniyev B.B.

Bitiruv malakaviy ishi YADAKning 2014 yil «__» iyundagi majlisida himoya qilindi va «__» balga baholandi (bayonnoma №__).

YADAK raisi

p.f.d.,prof. Muslimov N.

A’zolari

Samarqand – 2014

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

5141600-boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi

MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'ZBEK
MILLIY MUSIQASI ORQALI
TARBIYALASH**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Rajabov Dilshod
Ilmiy rahbar: p.f.n.,dots.Yusupov X.Yu.

Samarqand - 2014

KIRISH

Dolzarlighi. Bayramlar eng qadimgi davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat hayotini mutloqo tasavvur etib bo‘lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi go‘zal tomonlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir.

“Bayram xalqning shodlik va xursandlik kuni”, - degan edi Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg‘ariy. Darhaqiqat, bayramlar yordamida hayotdagi hursandchiliklar, shodiyona, tantanavorlik xolatini vujudga keltirgan yirik voqealar, muhim sanalar, ulkan yutuqlar nishonlanadi. Bayram insoniyatning uzi bosib o‘tgan yo‘llarni chuqur anglashi, qo‘lga kiritgan g‘alabalardan mag‘rurlanishi, ertangi kunga yaxshi umid bilan qarashiga yordam beradi.

Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar mustahkam o‘rin egallagan, ularni nishonlamaydigan hech bir shaxs, oila, jamiyat topilmaydi. Shuningdek, har bir millat va elat, xalqning o‘z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqining eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib, kamol topib, bebaxo me‘rosga aylangan bayramlari ko‘p. bu bayramlarning ma‘lum qismi tarixning “sovuq shamollari” – bosqichlari va turli tarixiy shaxslar-hukumdorlar taziqiga uchrab, nohaq yo‘qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko‘pgina fazilatlardan ajralsa-da, butunlay yuqolib ketmagan, yana boshqalari xalq hayotidan mustahkam o‘rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Xullas, eng qadimiy xalq ommasi extiyoji bilan shakllanib borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan, muayyan vaqtlarda taqiqlangan, katta qarama-qarshiliklar, tusiqlarni yengib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan o‘zbek bayramlari uzoq va boy tarixga ega. Biroq xanuzgacha o‘zbek xalq bayramlarining tarixi va hozirgi axvoli maxsus o‘rganilgan emas.

O‘zbekiston hududida yashagan va yashayotgan avlodlarining paydo bo‘lishi, tarixiy rivojlanishi, xozirgi kuni, muammolari haqida maxsus ilmiy-ommabop kitoblar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish – tarixiy zaruriyatdir. Chunki, xalq o‘zi avlodlari nishonlab kelgan va xozirgi paytda o‘zlari nishonlayotgan bayramlarning mohiyati tarixini bilmog‘i kerak. Ayniqsa, bunday bilimlar va ma‘lumotlar xalq bayramlari tashkilotchilari uchun juda zarur.

Binobarin, hozirgi paytda Toshkent Davlat madaniyat institutida maxsus tayyorlanayotgan “Ommaviy bayramlar rejissor-tashkilotchilari, klub ishlari metodis-tashkilotchisi”, “dam olish tashkilotchisi” mutaxasislari va boshqa bo‘lg‘usi madaniy-ma‘rifiy muassasa xodimlari, respublikamizdagi yetishtirilayotgan kadrlar, qolaversa joylardagi bayamlarni uyushtirish borasida o‘ziga xos markaz vazifasini utaydigan madaniyat maktabida ishlayotgan minglab amaliyotchilar ham bunday bilimlarga ehtiyoj sezmoqda.

Mazkur qo‘llanma ana shu hayotiy ehtiyojlar tufayli vujudga keldi. Unda O‘zbekistonda qadimdan nishonlab kelinayotgan hamda keyingi davrda xalq hayotiga singib borayotgan bayramlar haqidagi ma‘lumotlar muayyan sistemaga solinib, maxsus bayon etiladi. Qullanma talaba va o‘quvchilarga bayramlar haqida ilmiy bilimlar berish bilan bir qatorda, ana shu bayramlarni joylarda tashkil qilishga ham ko‘maklashadi.

Ma‘lumki, hech qaysi bayram sof xolda uchramaydi, ana shuni hisobga olib, kitobda uni vujudga keltiradigan manbalar, shakllar, tadbirlarga keng murojaat qilindi. Chunonchi “Bayram holati” yoki “Bayram kayfiyati” nazariyasi asoslanib, bayramlarning tarkibiy qismi sifatida uyushtiriladigan hamda bayram shaklida o‘tadigan turli tadbirlar (marosim, tomosha, xalq o‘yinlari, sayillar, namoyishlar, tantanali kechalar, festival, dekada, yubiley kabilar) ham bayramlar doirasida o‘rganildi.

“O‘zbekiston bayramlari” ikki asosiy qismdan iborat bo‘lib, uning I qismida o‘zbek xalqi bayramlarining tarixi, mohiyati, o‘ziga xos hususiyatlari, asosiy shallari yoritilsa, II qismida zamonaviy bayramlar haqida fikr yuritiladi.

“O‘zbekiston bayramlari” kitobi ko‘p yillik, ko‘plab ilmiy-adabiy manbalar va hayotiy tajribalarga suyangan xolda yozildi. Unda, birinchidan, bayramlar tarixiga oid sharqning buyuk allomalari – Beruniy, Firdavsiy, Mahmud Qoshg‘ariy va boshqalarning asarlaridan hamda arxeologlar, etnograflar, folklarchilar B. Sarimsoqov, M.Raxmonov, D.M.Genkin, N.P.Lobacheva va boshqalarning materiallaridan foydalanildi. Ikkinchidan, O‘zbekistonning turli joylarida uyustirilayotgan yuzlab ommaviy bayramlar maxsus kuzatildi, tadqiq qilindi. Bayramlar tashkilotchilari o‘rtasida ham maxsus ilmiy tadqiqot o‘tkazilib, ularning fikr-mulohazalari urganildi. Respublikaning Urgut, Forish, Baxmal, Chust, Toshkent, Buxoro, Namangan kabi joylarida ko‘plab qariyalar bilan maxsus suhbat o‘tkazilib, ulardan an’anaviy xalq bayramlari haqida qimmatli ma’lumotlar yozib olindi. Uchinchidan, kitobda muallifning bayramlarni tashkil qilish borasida ish tajribasi va ba’zi eksperimentlari ham o‘z aksini topdi. O‘zbekiston bayramlari haqida alohida va ilk bor kitob chop qilinayotganligi tufayli, unda ayrim masalalar to‘la yoritilmagan, ba’zi fikrlar esa munozarali bo‘lishi tabiiy.

Bunday yuksak fazilatga ega bo‘lgan barkamol shaxs asosan oilada tarbiyalanadi. Oilaning bolalarga ko‘rsatadigan ta’siri shundaki, hech qanday boshqa ijtimoiy ta’sirlar buni bera olmaydi. Bu fikrning to‘g‘riligini Prezidentimiz I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqida barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori ekanligini alohida ta’kidlaydi. Bu ta’kid mamlakatimiz Xalq

Ta`limi tizimi xodimlari, pedagogika- psixologiya fani vakillari zimmasiga juda katta mas`uliyat yuklaydi.

Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan «Ta`lim to`g`risida»gi Qonunda ta`lim tizimining asosi Boshlang`ich ta`lim maktabigacha ta`lim, oila ta`limi, boshlang`ich ta`lim ekanligini uqtirilgan. Oila ta`limi bola shaxsining sog`lom va Boshlang`ich ta`lim maktabida o`qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun hamda shu qonun asosida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro`yobga chiqarishda asosiy mas`uliyat oila zimmasiga tushadi. Chunki bola tug`ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi va shakllanadi. Oilaga xos an`analar, qadriyatlar, urf-odatlar, bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim fazilatlar oilaviy hayot Boshlang`ich ta`lim maktabii orqali jamiyat talablarini angalaydi, his etadi, unga qo`shiladi, ya`ni o`z shaxsiy munosabatini bildiradi.

O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma`naviy rivojlanishi barkamol insonni shakllantirish bilan ro`yobga chiqariladi. Barkamol, yetuk inson asosan o`qimishli, yangicha fikrlaydigan, madaniyatli, mehnatsevar, uquvli, jismonan va ruhan sog`lom, o`z haq-huquqini bilgan, vatanni sevadigan, faol, fidoiy va ma`naviy yetuklik singari insoniy fazilatlarni o`zida mujassamlashtirmog`i lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «O`zbekistonning o`z istiqloli va taraqqiyoti yo`li» asarida jamiyatning asosiy negizi bo`lgan oila, yoshlar tarbiyasi, insonparvarlik haqida to`xtalib: «Oila jamiyatimizning negizi. Bizning davlatimizda ham katta oila deb tushinish mumkun va qattiq tarbiya bo`lmasa, oilaning barcha a`zolari o`z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko`rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkun emas. Oilada turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o`zining ko`p asrlik mustahkam va ma`naviy tayanchlariga ega bo`ladi,

oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O`zbeklarning aksariyati o`zining shaxsiy forovonligi to`g`risida emas, oilasining, qarindosh-urug`lari va yaqin odamlarning, qo`shnilarning eson-omonligi to`g`risida g`amxo`rlik qilishi birinchi o`ringa qo`ydi. Bu esa eng oliy darajada ma`naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”, - deydi va mustaqil o`zbek davlatida yashayotgan inson, oila boshliqlarining oldida turgan asosiy vazifalarni aniq ko`rsatdi. “Har bir insonning, - deydi I.A.Karimov ayniqsa hayotga qadam qo`yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o`rtasida qo`yilgan maqsadlarga erishish o`zlariga bo`g`liq ekanligi, yana bu narsa ularning o`z maqsadi yo`lidagi sobitqadamliligi va g`ayrat-shijoatiga, to`la-to`kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog`liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Shu narsa davlatimizning va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir”.

Oldimizda turgan buyuk vazifalarni yechishning asosiy omili, ularni hal qilishning asosiy omili, ularni hal qilishning yagona sharti aqliy va ma`naviy axloqiy yetuk, fidokor, milliy g`ururli, etiqodli va irodasi mustahkam, vatanparvar, erkin fikrli, ong va taffakuri mustaqil, dunyoqarashi keng, siyosiy, huquqiy barkamol, milliy tarbiya asoslarini o`z xatti-harakati, xulq-atvorida mujjasam etgan so`z bilan ishi biri ma`naviy va jismoniy komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Mana shu masalalarni hal qilish mavzumizning dolzarbligini tashkil etadi.

Shu sababli pedagogik tadqiqotlar doirasida mazkur masalaning hali maxsus o`rganilmaganligidan, mamlakatimizda yoshlarni estetik didli qilib tarbiyalashga tobora o`sib borayotgan mazkur zaruratidan kelib chiqib tadqiqotimiz mavzusini **«Bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda milliy bayramlarining ahamiyati»** deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi – maktabgacha ta`lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – maktabgacha ta`lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirish.

Tadqiqotning predmeti – bevosita maktabgacha ta`lim maktabida axloqiy tarbiyani amalga oshirish.

Tadqiqotning vazifazi – obyekti va predmetidan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

1. Boshlang'ich ta`lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirish, milliy axloq tushunchasi pedagogik mohiyatini nazariy asoslash.

2. Milliy axloq tushunchalarini maktabgacha ta`lim maktabida tashkil qilish, undan keyin esa katta guruhlarda axloq tushunchasini o'quvchilarga yanada chuqurroq singdirishni tashkil qilishning pedagogik-psixalogik xususiyatlarini ochib berish.

3. milliy bayramlar va axloq tushunchasini mashg'ulotlar davomida shakllantirish, qadimiy urf-odatlar va madaniy meros orqali o'quvchilarda axloq tuyg'usini shakllantirish ishlarining pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Boshlang'ich ta'lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirish qay darajada ekanligi o'rganildi va tahlil qilindi.

Tajriba tadqiqot maydonchasi sifatida Samarqand shahridagi 122-Boshlang'ich ta'lim muassasasi tanlab olindi. Pedagogik eksperimentda 21 ta o'quvchi, 4 nafar tarbiyachi, 16 ta ota-onalar ishtirok etdilar.

Tadqiqotning metodologik asosini:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Prezident asarlarida belgilab berilgan dasturiy g'oyalar, xalq pedagogikasi va ma'rifatparvarlarimizning ma'naviy-axloqiy, *milliylik, milliy axloq* tushunchasi haqidagi fikrlari tashkil qiladi.

Muammo doirasida tajriba-sinov ishlarini olib boorish quyidagi ***ilmiy tadqiqot metodlari*** yordamida amalga oshiriladi:

1. Pedagogik kuzatuv metodi.

Maskur metoddan maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirish asosida tadqiqot ishi uchun zarur nazariy va amaliy ma'lumotlarni qo'lga kiritish maqsadida foydalaniladi.

2. So'rovnoma-anketa metodi.

Ushbu metod o'quvchilarni maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirishni tashkil etish borasida mavjud dalillash nazariy va amaliy malumotlarni boyitish uchun xizmat qiladi.

3. Suhbat metodi.

Maskur metodda vaziyatni yanada oydinlashtirish maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirish tushunchasi to'g'risidagi fikrlarini o'rganish bu borada yagona xulosaga kelish, shuning shart-sharoitlarini o'rganish maqsadida foydalaniladi.

4. Qiyosiy tahlil metodi.

Ushbu metod maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarini milliy axloqiy munosabatlarini rivojlantirishning mavjud holatini aniqlash tarbiya jarayonini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlarning samaradorligini belgilash, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining natijalarini qiyosiy o'rganish imkonini beruvchi tadqiqod obyekti bo'lgan tarbiya muassasasining tarbiyachi va o'quvchilarini nazorat hamda tajriba guruhi sifatida ikki guruhga ajratish va ular tomonidan qayd etilgan ko'rsatkichlarni taqqoslash maqsadiga xizmat qildi.

5. Pedagogik tajribalarni o'rganish metodi.

Maskur metod tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari bilan tanishish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida qo'llaniladi.

6. Matematik-statistika metodi.

Maskur metodda tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan tajriba sinov ishlarining samaradorligini isbotlash maqsadida foydalaniladi.

Tadqiqot ishimizning tarkibiy tuzilishi:

Malakaviy bitiruv ishimiz, kirish, ikki bob, besh band, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Uning kirish qismida tadqiqotning umumiy ta'rifi berilgan, ya'ni mavzuning dolzarbligi asoslanadi. Maqsadimiz va shu asosda qilinadigan vazifalar aniqlandi. Qisqacha holda tadqiqotimizning nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Tadqiqotning birinchi bobi nazariy sharxlarga asoslangan bo'lib, bunda bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlarining dolzarbligi, muommoning pedagogik yechimi, uning ijtimoiy ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan. Ushbu bobda bundan tashqari xalqimizning ma'naviy axloqiy tarbiyasi xususiyatlari, milliy bayram tadbirlari va ularni

maktabgacha ta`lim maktabi o`quvchilarida ijobiy ta`siri mohiyati, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining oila tarbiyasi haqidagi qarashlari, ularning g`oyalari hozirgi kundagi o`rni va ahamiyati nazariy materiallari bilan umumlashtirilgan.

Malakaviy bitiruv ishimizning ikkinchi bobi esa O`zbekistonda nishonlanadigan zamonaviy bayramlarning amaliyoti yoritilgan. Ushbu bobda maktabgacha ta`lim maktabigacha ta`lim maktabida tabiat bayramlari haqida, maktabgacha ta`lim maktabigacha ta`lim maktabi tabiyalanuvchilari dunyoqarashini shakllantirishda milliy bayramlarini o`rni, oilada bolalarni milliy axloqiy tarbiyalash bayramlarning o`rni ham atroflicha yoritilgan.

Malakaviy bitiruv ishning xulosa qismda har ikkala bob yuzasidan ilmiy hisobot berilgan. Tadqiqot maqsadining amalga oshganligi hamda bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda milliy bayramlarining ahamiyatini ochib berishda bir qator taklif va mulohazalar bildirilgan.

I BOB. BAYRAMLARNING MOHIYATI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

1.1. Milliy bayram tadbirlari va ularni maktabgacha ta`lim maktabi o`quvchilarida ijobiy ta`siri mohiyati.

Hanuzgacha o`rganilmay kelimayotgan o`zbek xalq bayramlari uzoq va boy tarixga ega. Agar tarixchi-madaniyatchunos olimlarning “Bayram inson bilan birga paydo bo`lgan va rivojlangan” degan fikriga tayansak, bayramlarning kurtaklarini eng qadimiy paleolit davridan, ya`ni O`rta Osiyoda odam zoti paydo bo`la boshlagan – 500 ming yil avvalgi vaqtdan izlasa bo`ladi. Bu yarim million yil doirasidagi inson hayotidagi, madaniyati, odatlari jiddiy tadqiqotlarni kutmoqda. Biz esa, xozircha, keyingi 3 ming yillik davr ichidagi mahalliy xalqlar bayramlari haqida so`z yuritmoqchimiz. Buning uchun avvalo, qadimdan O`rta Osiyoda yashagan ajdodlarimiz – sak, massaget, baqtriylar, sug`dlar, xorazmiylar bayramlari va so`ngra O`rta asrlar va inqilobgacha tarixiy shakllanib kelgan o`zbek xalqi bayramlariga murojaat qilamiz. Shuni takidlash kerakki, tarixga qanchalik chuqur kirib boraversak, shunchalik tarixiy manbalarning ketayotganini sezamiz. Shu sababli iptidoiy davr bayramlarini asosan arxeologik qazilmalar va topilmalar bergan ma`lumotlarni qiyosiy tarixiy tipalogik taxlil qilish bilan o`rganishga, quldorlik va undan keyingi tuzumlardagi bayramlarni oz bo`lsada, saqlanib qolgan tarixiy, adabiy va boshqa manbalar asosida tadqiq qilishga harakat qilamiz.

Arxiologlar, tarixchilar, etnograflar, san`atshunoslar bergan ma`lumotlarga qaraganda, bayramlar eng qadimiy davrlardanoq mavjud bo`lgan va iptidoiy odamlar hayotidan muhim rol o`ynagan. Bu fikrini madaniyatshunos olimlar ham e`tirof etishadi. Masalan, D.M. Genkenning fikricha, “bayramning chuqur ildizi insoniyatning “go`daklik” davriga borib

taqaladi”. Yoki M.M. Baxtinning takidlashicha “Bayram – insoniyat madaniyatining boshlang‘ich shaklidir”.

Bayramlarning eng qadimiy davrlarda mavjud bo‘lganligi umuman tan olingan bo‘lsada, biroq bu masalalar hanuzgacha maxsus o‘rganilmay kelinmoqda. Ammo hozirgacha mavjud bo‘lgan manbaalarga tayanib, ilk bayram shakllarining paydo bo‘lishi haqida tanqidiy fikr yuritsa va ular to‘g‘risida muayyan tasavvur xosil etsa bo‘ladi.

Ma’lumki, inson o‘z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatdan erishilgan muvaffaqiyatlar esa xursandchilikni vujudga keltirgan, bu jarayon iptidoiy odamlar ovchilik bilan kun ko‘rayotgan davrlarda aqqol sodir bo‘la boshlagan. Chunki arxilogik qazilmalar va g‘orlardan topilgan iptidoiy davrlarda chizilgan irimitiv suratlarda asosan hayvonlar, ov qilish, ovchilar raqsi (ba’zan hayvonlar niqobida kabi tasvirlar) qadimiy odamlarning o‘z mehnati (ovi) natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Darxaqiqat iptidoiy odam mehnati qanchalik samarali tugasa, qorni to‘ygan, xursand bo‘lmagan va aksincha, bermasa, och qolsa, xafa bo‘lgan. Ovidan o‘lja bilan qaytish va o‘z mehnatidan manfaatdor bo‘lish xursandchilik, shodiyona kayfiyatni yaratgan. Bu xolatda ovchilar ov jarayonini imo-ishora, maxsus harakatlar hamda o‘yin shaklida ifodalashga urinishgan. Yoki G.V.Alixanov tabiri bilan aytganda: “O‘yin-mehnat farzandi” bo‘lib vujudga kelgan.

Tarixiy malumotlarga qaraganda iptidoiy ovchilar hayotida ovchilik o‘yinlari muhim o‘rin tutgan. Ba’zi manbaalarda ular ovdan oldin o‘tkazilishi yozilgan bo‘lsa, boshqalarida ovdan so‘ngi o‘yinlar haqida fikrlar bayon etilgan. Agar bu ma’lumotlarni chuqurroq taxlil etadigan bo‘lsak, unda ovchilik ovchilik o‘yinlari ovdan oldin ham, undan so‘ng ham, o‘tkazilgan deyish mumkin. Ovdan oldingi ovoidi mashqlar (ovga tayyorgarlikni

tekshirish, ovga ruhiya va jismoniy tayyorlanish) vazifasini o'tagan xamda jiddiy o'ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. Bu o'yinlar jarayonida iptidoiy odamlar o'ljani osongina qo'lga tushurish unga yaqinlashishni o'rganishgan. Buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishni, uning yurish-turishlari va tuvush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rganishgan. Shu boisdan u o'ziga xos Boshlang'ich ta'lim maktabi vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilar maxoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ularni taqlid san'atini shakllantirishgan va rivojlantirishgan.

Ovda so'nggi o'yinlar ovning muvoffaqiyatli tugagandagina uyushtirilgan, deb taxmin qilish mumkin. Chunki ovdan o'lja bilan qaytish, bu ziyofat xursanchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishga imkon yaratgan.

Ovchilar bunday o'yinlar yordamida "Kun bo'yi ov qilib charchab qaytgach, kechqurunlari o'z azoi-badanlariga dam berish", "bugungi taasurotlarni kayfiyat va tuyg'ularni, ovdan mamnunliklarni, to'qchilikni, sho'xliklarni ifodalashardi". Bu jarayonlar, ya'ni har bir muvaffaqiyatli ovdan keyin o'yinning an'ana bo'lib qolishi bayram kayfiyatida o'tadigan maxsus marosimni shakllantira boshlagan.

O'rta Osiyo hududida ham ovchilik o'yinlari bo'lgan degan taxminiy isbotni biz poliolit davri Sherobodagi Zarao't Karamsoyning toshlariga tushurilgan, tasvirlardan, milloddan avvalgi II I ming yilliklarda Farg'ona vodiysidagi Saymaltosh g'orlarida aks ettirilgan devoriy rasmlardan va boshqa arxeologik topilmalar toshidagi tasvirlardan topishingiz mumkin. Ularda nafaqat totemlarga sig'inish, balki ov jarayoni, ovdan keyingi shodiyonalik, hayvon niqobi va qiyofasidagi ovchi o'yinlari aks ettirilgan.

Ularning ayrimlarini diqqat bilan urganganimizda ovchilarning xursand va shod qiyofasida bayram elementlarini sezdik.

Eng qadimiy tarixiy voqealar va bayramlarga oid ba'zi ilmiy adabiyotlarda takidlashicha, ilk bor maxsus uyushtirila boshlagan bayramlar totemlarga (ilohiy hisoblangan) bag'ishlangan Y.G.Belousovning fikricha "Eng qadimiy va ommaviy bayramlar qatoriga eng avvalo, zoofagik bayramlarni kiritish mumkin." Bu bayramlardaturli joylarda totem hisoblangan, turli hayvonlar, ayiq, yovvoyi echki, sigir, bug'i, ot kabilarga sig'inishgan.

"Qadimgi dunyo tarixi" kitobida yozilishicha, totem hayvonlariga bag'ishlangan bayramlar odamlarda unga taqlid qilishgan, ularning terisini kiyib uyiga tushishgan. Shuningdek, totem hisoblangan hayvonlarni faqat tantanali marosimlarda uldirishgan va yeyishgan.

Mehnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning chorvachilik va dehqonchilikka o'tishi (bu jarayon O'rta Osiyoda milloddan oldingi III ming yillik oxiri – II ming yillik boshlariga to'g'ri keladi) ana shu yangi sohaga oid odam, marosim va bayramlarni vujudga keltira boshladi. Ma'lumki, dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea – bu hosilni yig'ish va yangi noz-ne'matlarni tatib ko'rish jarayoni bo'lgan. Yil bo'yi tutilgan bunday jarayon, tabiyki dehqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bunday ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar o'yinlar va marosimlarni tashkil qilishgan. "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, ya'ni keng manoda aytganda, bayram holatini vujudga keltirgan.

Tarixdan bizga shu narsa ma'lumki, iptodoiy jamiyatda ham jamoa va uning a'zolariga bag'ishlangan, tantanalar asta-sekin shakllana borgan. Bu xildagi ilk shakllarga "Organet bayramlari"ni misol qilib olsak bo'ladi. Bu bayram o'tkaziladigan kunda barcha erkak va ayollarga o'zlari uchun juft

tanlash erkinligi berilgan. Urug‘chilik davrida oila vujudga kelishi bilan o‘sha davrga xos to‘y marosimlari shakllandi. Bu qadimiy to‘ylarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, to‘y kuni kuyov va kelinning turmush qurishga qay darajada tayyor ekanligi sinab ko‘rilgan.

Qadimiy davrdagi bayram kayfiyatida o‘tadigan marosimlardan yana biri – “Erkaklikka o‘tish” marosimi hisoblangan. Uspirin unga uzoq tayyorgarlik ko‘rib o‘zining hayotga tayyorligi va kuchini namoyish etishga intilgan. Bu marosimda uspirin qiynalgan sinalgan, xullas, imtihondan o‘tkazilgan. So‘ng esa u bolalik odatlarini tashlab, kattalarga qo‘shilgan, birga ovga borgan, birga mehnat qilgan. Iptidoiy jamiyatda kechki poliolit davridan boshlab odamlar atrofidagi xodisalarni anglashga intiladiganlar lekin ularning tabiati sirlari oldida aqliy jihatdan ojizlik natijasida turli ilohiy kuchlarga sig‘inish, jumladan totemistik (hayvonlarning ilohiy kuchiga sig‘inish), animistik (jon va rux obrazidagi ilohiy kuchlarga ishonish), politestik (quyosh, yer, suv, olov va hokazolarga sig‘inish), magik (insonlarning so‘z va harakat orqali namoyish qiladigan ilohiy kuchiga ishonish) vujudga keladi. Tabiiyki, kishilar bunday tushunchalar, qarashlar, orzularni muayyan marosim va bayramlarda aks ettirishga urinishganlar, chunki, chunonchi qirg‘oqchilik davrida “Yomg‘ir til osh” (“sust xotin”), shamol zarar keltirganda – “Shamolni to‘xtatish” (“Choymomo”) va shamol kerak bo‘lganda “Shamol chaqirish”, bevaqt sovuq tushganda – “Quyoshga sig‘inish”, omad kelmaganda ofat kelganda qurbonlik qilish va hokazo marosimlar o‘tkazilgan. Biroq bunday hodisalarni ham bayram deb bo‘lmaydi, albatta chunki ular asosan tabiat injiqliklaridan odamlarga ortiqcha tashvish keltirganidagina o‘tkazilgan. Biroq keyinchalik iptidoiy odamlar bunday marosimlarni tabiiy ofatlarning go‘yo oldini olish maqsadida o‘tkaza boshlashadi. Bu esa ularning ba‘zilarini bayramga aylanib ketishiga sabab bo‘ldi, jumladan qurbonlik qilish asosida – “Qurbon Hayit” vujudga

kelgan. Demak ba'zi ilohiy kuchga ishonishga bag'ishlangan, marosimlar asosida keyinchalik diniy bayramlar nishonlana boshladi. Maxsus adabiyotlarning kunida bayramlar marosimlardan kelib chiqqan deyiladi. Bu umuman olganda to'g'ri fikr. Ammo ko'pgina marosimlar o'z navbatida kishilarning mehnat va kurashga erishgan yutug'i va xursandchiligi, boshqacha qilib aytganda, bayram holati asosida vujudga kelgan. Bunga ovchilik va dehqonchilik marosini bayramlari misol bo'la oladi. Buning ustiga mehnatga bag'ishlangan tantanalar faqat marosimdan tashkil topibgina qolmay, balki unda o'yinlar, musobaqalar, uyushtiriladi, xatto shu tantana uchun maxsus taomlar tayyorlangan. Iptidoiy davrda qadimiy odamlarning o'zlari kabi juda sodda bo'lgan mehnat, hayot va dinga oid turli bayramlar shakllari vujudga kela boshlagandi. Ana shu oddiy shakllar keyingi tarixiy davrlardagi bayramlarga asos va zamin bo'la oladi. O'rta Osiyo jumladan, O'zbekiston hududida yashovchi xalqlarning bayramlarini o'rganishda X-XI asrlarda ashagan buyuk Ensiklopedik olim Abu RAYxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardankelgan yodgorliklar" asari muhim rol o'ynaydi. Beruniy o'zining bu asarida qadimiy eroniylar, xorazmiylar, sug'diylar, ruminlar, yaxudiylar, sureminlar, xristianlar, xindlar va boshqalarning kalendaridagi mashxur kunlar, hayitlar va odatlar haqida tarixiylar madaniy ahamiyatga ega bo'lgan bebaho fikrlar qoldirgan. Biz uchun eng muhimi shundaki, u O'rta Osiyo jumladan Xorazm va Sug'd xalqlarining islomgacha bo'lgan yillik calendar bayramlari haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda, sug'diylarda Mavsard oyining birinchi kuni – Navro'z va 28-kuni – Ranush og'am; Keysanj oyining 12-kuni – Mojuj; Basakanj oyining 7-kuni – Nukx og'am; 15-kuni – Amexvora; Amn-x-nda oyining 18-kuni – Boboxvora yoki bolixvora hayiti; F-g'-kon oyining 1-kuni – Sarda; J-m-d-n-j oyining 24-kuni – "Bog' annom"; X-sh-n-m oyining oxirida o'lganlarga aza tutish kuni kabi hayit

o‘tkazilgan. Beruniy xorazmliklar bayrami haqida ham aloxida to‘xtalib, quyidagi bayramlar bo‘lganini ta’kidlaydi. Kitobda Navsarji oyida yil boshi (Navro‘z); x-r-v-dod oyining 1-kuni arixo-suvon (issiq kiyimdan chiqish, ochilish hayiti); Iirn oyining 15-kunini – Ajj‘or (Kuz oxirida olovda isinish hayiti); A-x-sh-r-v-n-r oyining 1-kuni R-g‘-b-r-i-x yoki Fa-g‘-r-u-ba (sovuq kelishi bilan xorazm podsholarining shahar chetiga chiqib, uni yovdan himoya qilish kuni); Umri oyining 1-kuni – Azdokandxvor (sovuq tushishi bilan olov yoqilgan uylarda uchoqlar atrofiga yig‘ilib, yog‘liq non yeyish kuni); 13-kuni Chiri-rux (uyin erish); Rish-j-d oyining 15-kuni – “Mina kechasi” (erta bahorda kechasi sovuqda qolib o‘lgan ayol xotirasi munosabati bilan o‘tkaziladigan hayit); Iskandarmaji oyining 4-kuni – Xej, 10-kuni Vaxmancham (suvga e‘tiqod qilish kuni); 20-kuni – Chiga (bir-biriga yaqin uylar qurish kuni) kabilar borasida ham qiziqarli materiallarni bayon etgan.

1. Tabiiy voqealarga bag‘ishlaganlari: yil boshi bayrami (Navro‘z) ochilish bayrami, gulxanda isinish bayrami, yog‘lik non yopish kuni, Mina kechasi va hokazolar.

2. Diniy marosimlar (Islomga bo‘lgan davrda) arvoqlar uchun qabrlarga ovqat qo‘yadigan kun va boshqalar.

Ba‘zi etnograf olimlarning, jumladan, N.P. Lobachenkaning fikricha, qadimgi O‘rta Osiyoda yil boshi yozga, yozgi quyoshga tik turishi kuniga hozirgi 21-22-iyunga kuchirilgan. Biroq oy kalendariga o‘tilgandan keyin, yilning birinchi oyi yana bahorga kun vat un barobar bo‘lgan kunga, ya’ni 22-martga ko‘chirilgan. Bu haqda Beruniy Shunday yozadi: “Navro‘z” o‘tmish zamonlarda “Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo‘ldi. U butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha daraxtlar gullashidan mevalari yetulguncha, hayvonlardan qochish payti quzg‘alishidan to nasl vujudga kelgunicha davom

vaqtda keladi. Shuning uchun “Navro‘z” olamning boshlanishi va yaratilishga dalil qilingan”. “Navro‘z”ning kelib chiqishi haqida fikrlar, afsonalar mavjud.

Zardushtiylik davridagi ba’zi bir tushunchalarga qaraganda, yaxshilik xudosi Axuramazda – bahor yozda; Yomonlik xudosi Anxoramanyu – kuzda va qishda hukumronlik qilar emish. Bahorning birinchi kunini yaxshilik xudosi yomonlik xudosi ustidan g‘olib chiqqan, muqaddas sana deb uni bayram qilingan. Bu sana “Navro‘z” kuniga aynan tug‘ri kelgan. Boshqa qadimiy afsonalarga qaraganda, Odam ato va Momo xavo uchrashgan kun “Navro‘z” bayrami deb tan olingan emish. Firdavsiyning “Shoxnoma” asarida esa yangi yil “Navro‘z” vujudga kelishi shox Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasbga o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirib kiyim tuqitadi, hammom, uy, saroylar bunyod qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasatadi, bog‘ bunyod qildiradi. “Nihoyat” ishlari gurkirab, berganda meva bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Bu haqda Firdavsiy quyidagicha yozadi: “Beruniy keltirgan afsona bo‘yicha ham Navro‘z ulkan ishlar qilgan Jamshid shoxga bog‘lanadi. Jamshid o‘ziga arava yasab olgach, o‘sha kuni aravaga chiqib oldi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko‘tarib, bir kunda Dunbovandam Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko‘rgach, o‘sha kunni hayit qildilar va Jamshidning aravada uchishiga taqlid qilib arg‘umchoqlarda uchdilar.” “Navro‘z”ning paydo bo‘lishi haqidagi afsonalarni turli nuqtai nazardan taxlil qilish mumkin. Biroq masalaga ilmiy yondoshib, “Navro‘z”ning qachon va qanday vujudga kelganini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsada shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki “Navro‘z”ning yuzaga kelishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va taboat qonuniyatlari, ya’ni quyoshning xamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning vaqt jihatidan

barobar bo'lishi kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa har qanday jamiyatda "yil boshi", "Navro'z"ni tabiat bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo'lgan. Buning ustiga "Navro'z"ning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda iptidoiy odamlarning dehqonchilikka o'tganidan so'ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkaziladigan bahor bayramlariga borib taqaladi. Bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan shu narsa ravshanki, Eron, O'rta Osiyo va Afg'onistonda "Navro'z" bayramini o'tkazish Axmoniylar davrida milloddan oldingi VI asrlarda keng tarqalgani ma'lum bo'ladi. Agar shunday bo'lsa "Navro'z" deb nom olgan bu bayramning tarixi 26 asr va undan ham ko'p vaqtga egadir. Islomgacha bo'lgan "Navro'z"dagi oddiy xalqqa tegishli bo'lgan odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlarning bir-birlariga shakar va shirinliklar hadya qilishi hayotimiz shirin bo'lsin degan ma'noda, gullar taqdim qilish go'zal bo'ling degan ma'noda, bir-biriga suv sepishlari bu yil suv ko'p bo'lsin, mo'l hosil bo'lsin kabi va boshqa bir qator odatlar keng tarqalgan. "Navro'z" kuni shirinliklar yeyish, eng muhim udumlardan biri bo'lgan "Navro'z" kuni tong otganda birov gap gapirishdan oldin uch qoshiq asal yalab, uch bo'lak xushbo'y mum tutsa bu ko'p kasalliklarga shifo bo'ladi.

"Navro'z"ning oltinchi, ya'ni "Katta navro'z" kuni tongda gapishdan oldin shakar totib, o'ziga zaytun yog'i surtgan kishidan yilning hammasida turli balo daf etiladi. Rivoyatlarga qaraganda odamlarning bir-birlariga shakar hadya qilishlari va uni bayram kunlari maxsus totishlari sababi "Navro'z" kuni shakar tayyorlash paydo bo'lgan emish. "Navro'z"ga tayyorgarlik ko'rish odatlari orasida bug'doy yoki arpa donini yog'och idishga ustirib, bahor darakchisi sifatida dasturxonning markaziga quyilgan. Bayram arafasida yeti xil don (bug'doy, arpa, no'xat, jo'xori, guruch, mosh, loviya)

dan guja tayyorlanib, uni qo‘ni qo‘shnilarga, qarindoshlarga tarqatilgan. Bundan tashqari eroniylarda “S” harfi bilan boshlanadigan yeti xil ko‘k o‘simlik seb-olma, sabzi, sir-sarimsoq piyoz, sirka satortoshgul, siyohdon-qora danak, sinjid yovvoyi zaytun kabilar urug‘idan o‘stirilgan ko‘katlar bilan dasturxon bezatilgan. Shuningdek, unga turli quritilgan mevalardan qilingan sharbat, bo‘yalgan tuxumlar va boshqa noz-u ne‘matlar qo‘yilgan. Arvohlar ruhini shod etmoq uchun shamlar yoqilgan. Bayramlarda dasturxonga qo‘yiladigan yana bir narsa diqqatni tortmasdan iloji yo‘q. katta idishga suv to‘ldirib, unga ko‘k barg solib qo‘yishdir. Bu odat yangi yil suvga va ekinga mo‘l bo‘lsin degan ma‘noni bildiradi. Darvoqe barcha “Navro‘z” odatlarining zaminida xalqning yagona ezgu niyati – yangi yil xosildorlik, mo‘l-ko‘lchilik yili bo‘lsin, degan umidi, istagi yotadi. Sharq ayyomasi Umar Xayyom o‘zining bu bayramga bag‘ishlangan “Navro‘znoma” asarida: “Xar kishi “Navro‘z”ni bayram qilib shod-xurramlik etsa, kelasi yil Navro‘z kelganga qadar, uning umri xursandchilik va shodlik bilan o‘tishi muqarrar” deb yozadi. Bayramlar yuqorida eslatganimizdek, har bir fasl tabiati xususiyatini aks ettirishdan tashqari asosan faoliyatini madx etishga qaratilgan. Hususan, islomgacha bo‘lgan ko‘zgu bayramlaridan ikkitasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ularning biri “Tirgan”dir “Tir” “tirama” so‘zi hozir ham “kuz” degan ma‘noni bildiradi. Beruniy “tir” so‘zining ma‘nosini “dalufazlik” va “dehqonchilik” bilan bog‘laydi. Bu haqda shunday deb yozadi: “Dalufazlik” – buning ma‘nosi dunyoni saqlash uni qo‘riqlash va dunyoda hukmdor bo‘lish, yana “dehqonchilik” buning ma‘nosi dunyoni obod etish – ikkisi egizak bo‘lib dunyo shular bilan obod va doimo barqaror bo‘ladi, uning buzug‘ligi tuzaladi “Tirgak” katta bayram o‘sha kuni barcha podsho, dehqonlar yangi kiyim kiyib yurishgan. Bu bayramda bug‘doy va mevalardan maxsus taomlar tayyorlanib, dasturxonlarga tortilgan. Ba‘zi joylarda esa shu kuni cho‘milish odati bo‘lgan. “Tirgak”ning mazmuni va

odatlarga murojat qilsak, u “kuz boshi”da yig‘im-terim boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bayramga uxshaydi. Kuz mavsumida nishonlanadigan katta bayramlaridan yana biri “Mehrjon” bo‘lgan. “Mehrjon” so‘zining tavsifi – birinchisi “jon sevgisi”, ikkinchisi “quyosh” demakdir. Beruniyning yozishicha, “quyosh va oy falakning ikki so‘zi bo‘lgandek, “Navro‘z” va “Mehrjon” zamonning ikki ko‘zidir”.

Demak, “Navro‘z” bahorda kun va tunning barobar kelishida nishonlansa, “Mehrjon” – so‘zidagi bu holatni nishonlaydigan bo‘lgan. Eramizdan oldingi diqqatni tortadigan qiziqarli hodisalardan biri shuki, uzum mevalar pishgan paytda O‘zbekiston hududida mahalliy bayramlar o‘tkazilgan. Islomgacha bo‘lgan davrda diqqatga sazovor va qiziqarli bayramlar ko‘p bo‘lgan. Ulardan biri ayollar bayrami. Bu bayram izfandarmuz oyining 5-kuni nishonlanib “Ro‘zi isfandarmuz” deb atalgan bu haqda Beruniy: “O‘tmish zamonlarda bu oy va bu kun xotinlar xayotiga xos bo‘lib, erlar ularga exson qilar edilar” deb yozadi. “Isfandarmuz” erga va solixa, nomusli yaxshi kishilar qiluvchi. Shuningdek, Beruniy hayitlar va mashxur kunlar oddiy xalq hayotida qanday o‘rin tutganligi haqida quyidagicha bayon etadi: “Ana shu hayitlar faqirlar hayotining tangligini kenglikka aylantiruvchi umidvorlarni orzularini yuzaga chiqaruvchi va halokatga yaqinlashganlarni xatar va balodan qutqaruvchi sabablarning biri bo‘ldi.” Islomgacha bo‘lgan qadimgi rang-barang bayramlarning qimmatini va avzalliklaridab biri shunda ediki, ularni hukmdor sinflar uylab topgan emas balki tabiiy ehtiyojlar zamirida paydo bo‘lgan. Shunday qilib, qadimdan islomgacha bo‘lgan davr O‘rta Osiyo xalqlarida koinot, tabiat, fasllar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, muayyan sistemadagi bayram hayitlar bo‘lgan. Ularning eng muhimlarini jumladan “Navro‘z” bilan bir qator yozda nishonlanadigan “Angom hayit”, kuzdagi “Mehrjon”, qishdagi “Sado” kabilarni hozir ham yil fasllariga bag‘ishlangan bayramlar sifatida sistemali

o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu bayramlar kishilarni ona tabiatga qaytaradi, tabiat boyliklari va go'zalliklarini tushinish va qadirlashga o'rgatadi.

Har bir voqeaga tarixan nazar tashlamasdan, uni ilmiy tushinish qiyin deganlaridek, biz avvalgi bobda qisqa bo'lsada bayramlarning paydo bo'lishi va rivojlanish haqida to'xtalib o'tdik. Mazkur bobda zamonaviy bayramlarga to'xtalishimizdan oldin, ularning ilmiy-amaliy asoslariga, jumladan, bayramlarning mohiyati xususiyati va asosiy shakllariga to'xtalamiz. Boshlang'ich ta'lim maktabilarida bolalarning tarbiyasida ommaviy bayramlar eng kuchli emotsional ta'sir etuvchi vositalarni birlashtirib, o'quvchilarning umumiy tarbiyasi sistemasida o'ziga xosxususiyatga egadir. Boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilarga bayramning xalq hayotida eng yaxshi an'analari, odatlari axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishida yoshlarni tarbiyalashda ularning odob-axloqli bo'lishida o'rin tutadi. Misol uchun, Boshlang'ich ta'lim maktabilarida o'tkaziladigan bayramlar ommaviy bayramlarga misol bo'la oladi. Ommaviy bayramlarning eng asosiy birinchi xususiyati – bayram holati ya'ni bayram kayfiyati bilan bog'liqdir. Tashkilotchilar Boshlang'ich ta'lim maktabida o'zlari hohlagan vaqtda bayramni belgilashi yoki uni tashkil qilishi mumkin emas. Bayramni hayotning o'zi belgilab, xalqqa unga nisbatan ehtiyoj tug'ilganda va bayram kayfiyati vujudga kelganidagina tashkil qilsa bo'ladi. Misol uchun yangi yil bayrami o'quvchilar xohlagan vaqtda emas, balki tabiat va jamiyat qoidalari asosida o'tkaziladi. Yangi yil bayrami Boshlang'ich ta'lim maktabilarida juda qiziqarli o'tkaziladi, bu bayramga bolalar alohida tayyorgarlik ko'radilar, chunki aylanish jarayoni shunday kayfiyatni vujudga keltiradiki unga har bir o'quvchi o'z hayotining yillik umriga yakun yasaydi, kelgusi yilga yangi rejalar tuzadi, yaxshi niyatlar tuzadi. Shu daqiqaning o'zi ham bayram kayfiyatini vujudga keltiradi.

Yoki yoki paxta planini to'lishi bu dehqonlarning bir yillik tinimsiz mehnati muvaffaqiyati natijasi bo'libgina qolmay balki, Boshlang'ich ta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilarining institutining tugallashi – bu to'rt-besh yillik mashaqqatli bilim olishning natijasi. Albatta, bunday daqiqalarning barchasi shodiyona, xursandchilik, ya'ni bayram kayfiyatini vujudga keltiradi bu esa maxsus bayram uyushtirish uchun dalil yaratadi. Odatda bayram qilish uchun maxsus kunlar ajratiladi. Agar bayram maxsus uyushtirilsa-yu shodiyona xolat bunyod etilmasa, unda Boshlang'ich ta'lim maktabida o'quvchilar o'zining fikrlari tuyg'ulari va kayfiyatini bayon qilish uchun muhit yaratmasa, u oddiy Boshlang'ich ta'lim maktabida o'qib ketayotgan bir kundek o'tishi mumkin. Haqiqiy bayram unga o'quvchilar tayyorgarlik ko'rishganda, nishonlash yo'lini shakli topilganda va maxsus tashkil qilinganda sodir bo'ladi.

Bayramlar biror asos yoki sababsiz vujudga kelmaydi. Haqiqiy bayram ommada unga nisbatan ehtiyoj tug'ilganda va u maxsus uyushtirilganda sodir bo'ladi. Bayramlarning ikkinchi xususiyati – bu ommaning bayram ishtirokchisiga aylanishidir. Bayramlar faqat xalq uchun uyushtiriladi va uning ishtirokida o'tadi. Barcha san'at Boshlang'ich ta'lim maktabilarida teatr, konsert zali, kin ova televizorda ijrochilar va aholi o'rtasida ko'zga ko'rinmas “devor” mavjud bo'lib, omma faqat tomoshabin rolini bajaradigan bo'lsa bayramlarda esa Boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilarining faol ishtiroki bilan o'tadi. Bayramlarda Boshlang'ich ta'lim maktabi vaqtlari o'zlarining havaskorligi va tashabbuskorligini namoyon qiladi va nishonlanayotgan voqeaga o'z fikri va munosabatini bildirishadi. Ma'lumki hamma Boshlang'ich ta'lim maktabilarning o'quvchilarini bayramlarda bir xil darajada aktivlashtirib bo'lmaydi. Bayramlarda aktiv o'quvchilarni qatnashishi bayram programmasida ishtirok etadigan boshqaruvchilar xalq talantlari, badiiy havaskorlik kollektivlarining a'zolari

kabilardir. Bayram ishtirokchilarini aktivlashtirish uchun ular o'rtasida ommaviy o'yinlar, qo'shiqlar, vektorinalar, ko'rik-konkurslar, sport musobaqalari uyushtirilasi. Xullas bayramda har bir o'quvchi o'z ijodi va qobiliyati namoyish etishi mumkin. Bayramning uchinchi xususiyati shundaki, u sof xolatda uchramaydi. Albatta u bir yoki bir necha tadbirlarning sintezidan tashkil topadi. Agar uning asosida tadbirlar yotmasa u uyushtirmagan bayram xolatidan iborat bo'lib qoladi. Haqiqiy bayram bu bayram holatini tashkil qilish uni madaniy badiiy jihatdan bezash natijasida vujudga keladi. Har bir ommaviy, ayniqsa ochiq joylardagi bayramlarning asosiy marosim-tadbiri bayramlarning tantanali ochilishi uyushtiriladi. Ommaviy bayramlarni bu kabi tadbirsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarni tashkil qilish eng avvalo nishonlanayotgan voqealarning mohiyati va umumiy mavzusidan kelib chiqib, bularga mos shakllarni uni uyushtirish tadbirlarini topish demakdir. Bayramlarni uyushtirishda deyarli barcha o'quv muassasalar, korxonalar, tashkilotlar qatnashadi. Bayram kayfiyatini yaratish va uni uyushtirishda ommaviy axborot vositalari: radio, televidinya, matbuot, sanat maktabi, teatr, kinoteatr, filormoniya, konsert tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy muassasalar: klub, istirohat bog'i, sport tashkilotlari, jamoat tashkilotlari kabilar muhim rol o'ynaydi. Ularning har biri o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, bayramga bag'ishlangan eng yaxshi va yuqori saviyadagi faoliyatni namoyish qiladi. Muayyan joy sharoiti va mahalliy xususiyatlarida kelib chiqib, bayram uyushtirishda o'ziga xos hissi bor. Shuningdek, ularning har birida o'ziga xos bayram tadbirlarini, yani shakllari mavjud. Ularda o'tkazilgan bayramlar bir necha kompleks tadbirlar shaklidan tashkil topishi mumkin.

Bayramning mohiyati va ahamiyati uning qaysi miqyosda o'tqazilishini belgilab beradi. Odatda yirik bayramalrning har doim asosiy tadbiri bo'ladi. Xalqaro umumishfoq bayramlarni butun mamlakatda

nishonlash bilan uning bosh tantanasi masalasi xotin qizlar kuniga bag'ishlangan, tantanali majlis va poytaxtda bayram arafasida o'tkaziladi. Respublika miqyosidagi bayramalar barcha shahar, tuman va xo'jaliklarda o'tkazilishi rasm bo'lib qolmoqda. Shahar miqyosidagi bayramlar barcha tumanlarda uyushtirish bilan masalan mirishkor dehqonlar bayrami "Ona yer sahovati" yoki "Surxon sahovati" kabi bayramlar, markazdagi madaniyat va iztirohat bog'larida tashkil qilinadi. Shahar, tuman va qishloq maktabi miqyosidagi bayramlar masalan: tuman kuni, qishloq bayrami, mahalla bayrami kabilar ham shu yil bilan uyushtiriladi.

Umumlashgan shakllaridan iborat bo'lgan bayramlarni tashkil qilishda ham "bosh tadbir" degan tushuncha mavjud. Bu tadbir bayramlarning asosiy va eng muhim qismini tashkil qiladi. Unda 1) mazmuni va mavzusi yoritiladi. Bayramda tashkil qilingan boshqa shakllar "asosiy tadbirga yordam beruvchi shakli"lar hisoblanadi. Bayramlarni tashkil qilishda foydalaniladigan tadbir yoki shakllar xilma-xil va ularning doirasi cheklanmagan har bir bayram va ularning turli shakllari ijtimoiy-madaniy hayotda o'z o'rnini, bajaradigan vazifalari bor. "Birinchi qo'ng'iroq", "Navro'z" bayram o'rniga "Hosil bayrami"ni o'tkazish mumkin emas. Ularning har biri o'ziga yarasha mazmun, shakl o'tkazish lozim bo'lgan vaqti vaqtga ega. Barcha bayramlarga bir xildagi shakllarni qo'llab bo'lmaydi. Har bir bayramning xarakteri mazmunidan kelib chiqib, uning mantig'i talab qilgan shakllarni qo'llash maqsadga muvofiq. Bayramlarni tashkil qilishda uning mohiyati va ahamiyati hamda aholining unga unga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib, uning mantig'i talab qilgan shakllardan foydalanadi.

1.2. Boshlang'ich ta'lim maktabigacha ta'lim maktabida an'ana, odat, marosim va bayramlar tushunchalari haqida

Ma'lumki, noijtimoiy-madaniy hayotni bayramlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan an'ana, urf-odat va marosimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilariga bu tushunchalarni singdirib boorish zarurdir. Ular turmushning alohida shakli hamda bayramning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarga "marosim", "odan", "an'ana" kabi so'zlar bayram tushunchasi bilan bevosita bog'liqligini o'rgatib ularga aloxida izoh berish lozimdir.

"An'ana" – bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan avlod-dan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan hayotning barcha sohalarida umum yoki ma'lum guruh tomonidan qabul qilingan tartib va qoidalardir.

"Odat" – "urf-odat" – kishilatning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatga takrorlanib turuvchi, hatti-xarakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan, xulq-atvor qoidalari, kunikma. Masalan: Boshlang'ich ta'lim maktabida o'tadigan bolalarga bu bayramlarning ko'p tarbiyaviy ahamiyati bor, kichiklarning kattalarga salom berishi, yosh qizlarga erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yishi, mehmonlarga alohida hurmat bo'lishi, bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish, yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblanadi.

Agar an'ana ijtimoiy hayotmehnat madaniyatning hamma sohalariga mos bo'lib hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya'ni kishilar turmushi, mehnat, xulq-atvor, muloqooti va oilaviy munosabatlarida ko'proq mavjud bo'ladi.

"Marosim" – bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayoridagi muhim hodisalarni nishonlashga qaratilgan rasmiy

va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, o‘zining umum qabul qilingan rasmiy harakterlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbir. Masalan, ism qo‘yish marosimi, nikohdan o‘tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotiralash marosimi, ekishga kirishish “urug‘ qadash” marosimi va boshqalar.

Odatni kundalik hayotning turli vaqtida uchrashish mumkin bo‘lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo‘lganda vujudga keladi. Uning asosiy burilish daqiqalarini misol uchun tug‘ilish, uylanish, ulim kabilarni qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimning avloddan-avlodga o‘tadigan, ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud. Marosimga bo‘layotgan voqeaga “suvoq” sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik bo‘lishgan, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishgan. Har bir marosimning o‘ziga xos umumqabul qilingan tuzilishi, boshlanishi, o‘rtasi, oxiri bo‘ladi. Ko‘pincha an’ananing tarkibiy bo‘lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo‘ladi.

Shu sababli inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqeani turmushda burilish yasaydigan katta “nuqtalar”ni nishonlash jarayonida ham an’ana, ham odat, ham marosim sodir bo‘lishi mumkin.

Boshlang‘ich ta‘lim maktablarda ham o‘ziga xos an’anaviy bayramlar mavjud, bulardan: “Birinchi qo‘ng‘iroq”, “Tarbiyalanuvchi ustozlar” bayrami, “So‘ngi qo‘ng‘iroq” bayramlari odatiy bayramlar sirasiga kiradi. Bu tushunchalarni chuqurroq anglash uchun quyidagi misolga murojat etamiz. Yoshlar voyaga yetganda – yigitlar uylanishi, qizlarni turmushga chiqishlari kerak. Buni avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’ana desak bo‘ladi. Bir-birini sevgan yigit-qizning oila qurishi uchun nigoh to‘yi o‘tkaziladi, albatta. Bu esa o‘z navbatida insoniyat hayotiga singgan, muayyan qoidaga ma’lum tartibga ega bo‘lgan urf-odat hisoblanadi.

Nigoh to‘ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinning nigohdan o‘tishlari. Bu marosimlarning zamonaviylashgan shakliga ko‘ra

ular maxsus bezatilgan mashinalarda ko'chalarda yurishi, guvohlar bilan "Baxt uyi" zaliga kirishi, nigohdan o'tayotganda xodimlarning savollariga javob berishi, kerakli hujjatlarga tantanali imzo chekishlari, nigoh uzuklarini almashishlari lozim. Bu rasmiy va tantanali ravishda o'tadigan marosim. Yuqorida aks ettirilgan barcha jarayonlar va ayniqsa "Nigoh kechasi" – kelin-kuyov, ularning qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlari, do'stlari uchun haqiqiy bayramga aylanishi mumkin. Misol qilib shuni aytib o'tish mumkinki Boshlang'ich ta'lim maktabilarida o'quvchilar tomonidan bayramlarda, kechalarda; kelin salom solishi, yor-yorlar, laparlar aytish, askiya qilib kechalarda Navoiyxonlik qilib juda maroq bilan o'tkaziladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, "an'ana", "odat", "marosim" tushunchalarining izohi bir-biri bilan bog'liq xodisalar bo'lishi bilan bir qatorda an'analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim bo'lishi mumkin. Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutahasislarning ishlab chiqarishga borib ish boshlashlari bu odat tusiga kirib qolgan. Bu muhim voqeaga bag'ishlanib har yili an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi yosharning tantanali ravishda ishchilar safiga qabul qilish o'z-o'zidan marosimga aylanadi. Ba'zi holatlarda "an'ana", "odat", va "marosim" tushunchalari alohida ishlatiladi, abstract ma'no anglatishi mumkin. Bunday vaqtda ularga aniqlovchi so'zlar qo'shib biror ish jarayoni, hodisa tadbirlarga nisbatan ishlatiladi. An'anaviy bayram, an'anaviy tadbir, an'anaviy festival, an'anaviy kecha yoki insoniy odat, mukofotlash marosimi, to'y marosimi, pensiyaga kuzatish marosimi va xokazolar shular jumlasiga kiradi. "An'ana" bilan "odat" tushunchalariga nisbatan "marosim" ko'proq bayram bilan bog'liq. Ba'zi marosimlar bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zi marosimlar bayram kunidan tashqarida ham tashkil qilinsa, u bayram xolatini vujudga keltirishi mumkin. Masalan, "chigit qadash", bolalarning "Birinchi sinf"ga qabul qilinishi yoki "Diplom

topshirish” marosimlari bayram kunlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tantanali ravishda passport topshirish marosimini yoshlarni balog‘atga yetgan shaxslar bo‘lganligi haqida hujjatni olish har bir o‘spirin uchun katta bayram. Demak, birinchi, marosim bayramning tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ikkichidan, ko‘pgina marosimlar alohida o‘tkazilganda ham bayram holatini vujudga keltiradi.

“An‘ana”, “marosim” kabi bayram bilan bog‘liq atamalar qotib qolgan “turg‘un” tushunchalar emas. Ularning mazmuniga hayot rivojlanishi va turmush ehtiyojlari ta‘sir etishi mumkin. Ijtimoiy hayot taraqqiy etishi bilan uning talabiga javob bermaydigan an‘analar va bayramlar asta-sekin unitila boshladi. Mohiyatan xaqchil, ijtimoiy foyda keltishi mumkin bo‘lgan an‘analar taraqqiy etadi. Masalan, “Navro‘z”, “Qovun sayli”, “Lola sayli” va boshqa bayramlar zamonaviy talablarga javob berganligi uchun ishlab keladi. Ijtimoiy hayotning tubdan o‘zgarishi xalq turmushining tubdan o‘zgarishi, zamonga mos an‘analar yaratilishini talab qiladi. O‘zbek xalqi hayotida ilgari mavjud bo‘lgan ko‘plab mehnat va shaxsiy-oilaviy an‘ana, marosim va bayramlar vujudga kelmoqda. Keyingi paytlardagi ilmiy va maxsus adabiyotlarda “an‘anaviy bayramlar”, “yangi an‘analar” kabi tushunchalar ko‘proq ishlatila boshladi. “Yangi an‘analar” atamasi orqali hayotimizga ilk bor kirib kelayotgan va joylarda endigina odat tusiga kirib borayotgan marosim shakllarini tushunish kerak. Ko‘rinib turibdiki “an‘ana” va “marosim” atamalari juda ko‘p qirrali ijobiy tushunchalardir. Biroq biz takidlagan bu muammolar chuqur o‘rganilishi lozim va xali ular o‘zining maxsus tadqiqotlarini kutmoqda. Bizning asosiy vazifamiz – bayramlar yoki bayram darajasiga ko‘tarilgan tadbirlar va bayramlarning tarkibiy qismiga aylangan an‘analar, odatlar, marosimlarni o‘rgatishga qaratilgan Boshlang‘ich ta‘lim maktabilarida o‘quvchilarga bularning barchasini singdirib borish lozimdir.

Ikkinchi bob
O‘ZBEKISTONDA NISHONLANADIGAN ZAMONAVIY
BAYRAMLAR

2.1. Boshlang‘ich ta‘lim maktabigacha ta‘lim maktabida tabiat bayramlari haqida.

Tabiat kunlariga ko‘ra, muntazam o‘zgarish, yangilanish bo‘lib turadi: nimadir vujudga keladi, nimadir rivojlanadi va o‘z vazifasini o‘tab bo‘lgan vazifalar, xodisalar asta-sekin yo‘qola boshlaydi. Bu qonuniyat barcha xalqlar bayramlariga ham tegishlidir.

O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot taraqqiyoti asosida yangi ijtimoiy, mehnat va madaniy sohalarning vujudga kelishi, kishilarning zamonaviy ehtiyoji, davr talablari zaminida yangi zamonaviy bayramlar yuzaga kelmoqda. Tabiatni himoya qilish ehtiyoji kuchayishi natijasida “Tabiatsevarlar bayrami”, xalq madaniyatini takomillashtirish maqsadida “Folklor bayrami”, “Til bayrami”, oilayiv va shaxsiy hayotni farovonlashtirish maqsadida “Oltin, kumush to‘ylar” bayramlari, mahalliy joy hayotini yaxshilashga intilish zaminida ko‘cha bayramlari, mahalla kunlari, qishloq va shahar bayramlari shakllanmoqda.

Vaqt o‘tgan va hayot o‘zgargan sari ularning soni ham, turlari ham ko‘paymoqda. Biroq “songa doim sifat kerak” deganlaridek, bayramlar soni ko‘payishi ularning sifatini oshirishni ham taqozo qilmoqda. O‘zbekiston bayramlarini va bayram holatini vujudga keltiruvchi marosimlarni tadqiq qilish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, hozirgi paytda Respublikamizda mavjud bo‘lgan va tashkil qilinadigan bayramlarning soni 100 dan oshiq ekan.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ularning barchasi Respublikamizning hamma joyida nishonlanadi deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ularning birinchisi –

oasisy guruhi mamlakat va respublikamizning barcha barcha joylarida nishonlanadi, yoki nishonlanishi kerak. Ularga “Yangi yil” bayrami, “Navro‘z” bayrami, “Xotin-qizlar kuni”, xalqaro birdamlik bayrami, konstitutsiya kuni, Mustaqillik bayrami va hokazolar. Ikkinchi guruh bayramlar respublikamizning ko‘pgina joylarida nishonlanib boriladi.

Ma’lumki, inson tabiatning tarkibiy qismi va farzandi sifatida vujudga kelgan rivojlangan. Boshlang‘ich ta’lim maktabilarida o‘quvchilarga insoniyatning eng qadimiy an‘analari va bayramlari bevosita tabiat, undagi o‘zgarishlar, yil fasllari va mehnat jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Hozirgi davrlarda ham insonlarda tabiatga doir bayramlarga tobora qiziqishi yanada oshayotganligini sezish mumkin. Boshlang‘ich ta’lim maktabi o‘quvchilariga tabiatni muhofaza qilish muammosi eng dolzarb masalalardan biri ekanligini tushuntirish lozim. Chunki, tabiat, ona yerimiz toza va ozoda bo‘lsagina bizning hayotimiz farovon va go‘zal bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilarni tabiatga muhabbatni yanada oshirish hozirgi vaqtda bu mavzularga bag‘ishlangan tadbirlar, ko‘rik tanlovlar, bayramlarga hayotiy ehtiyojlar kuchaymoqda. Chunki, tabiatga bag‘ishlangan tadbirlar o‘quvchilarda tabiat go‘zalliklarini qadriga yetish hissini uyg‘otib, ularning har birini tabiat jonkuyari va aktiv himoyachisiga aylantirish uchun qulay sharoit yetmoqda. Keyingi paytlarda barcha oilaviy tadbirlarga bayram tusini berish harakati kuchaymoqda. Bu bayramlarga ayniqsa Boshlang‘ich ta’lim maktabilarida, tabiatga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tqazilib turiladi. Chunki, tabiatga bag‘ishlangan tadbirlarda o‘quvchilar, o‘simliklar va hayvonotdunyoga ajoyib va noyob go‘zalliklardan zavqlanish uchun sharoit yaratish o‘quvchilarda xursandchilik, o‘ziga xos ruhiy bayram kayfiyatini vujudga keltiradi. Balki shuning uchun bo‘lsa kerak, avvalgi uyushtirila boshlagan gul ko‘rgazmalari asosida “Gul bayrami”, qushlar ko‘rgazmasi zalida esa, “Qush

bayrami”, tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan ko‘rgazmalar asosida “Tabiat in’omi” bayramlari vujudga kela boshlagan.

Shuningdek, yil fasllari go‘zalliklarini tarannum etuvchi “Qish bayrami”, “Yoz o‘tmoqda soz”, “Oltin kuz”, inson mehnati evaziga tabiat in’omi etgan mahsulotlarni tarannum etadigan “Tabiat sovg‘alari” kabi bayramlar shakillana boshladi. Ular o‘quvchilarda tabiatga muhabbat uyg‘onishda ekologik tarbiya olib borishda, tabiatni himoya qilish va uning ajoyib namunalarini saqlash uchun yaxshi ma’naviy va amaliy sharoit yaratmoqda.

Binobarin O‘zbekistonda yangi tabiat bayramlari rivojlanishi uchun asos bor edi. Tabiat boyliklarini keraklicha qadrlay olgan, jumladan, yer, suv, o‘simliklarni jonidan sevuvchi o‘zbek xalqi hayotidagi bayramlarning asosiy qismi tabiat bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi bejiz emas. Chunonchi, tabiatning jonlanishiga bag‘ishlangan “Navro‘z” qir-adirlar o‘zining gullab-yashnab alohida go‘zallik kashf etgan paytda o‘tkaziladigan “Lola sayli”, daryolar jo‘shib toshganda uyushtiriladigan “Suv sayli”, sabzavod va mevalar g‘arq pishganda tashkil qilinadigan “Qovun sayli”, “Uzum sayli” va boshqalar qadimdan o‘zbeklarning asosiy bayramlari ekanligi ma’lum.

Tabiat bayramlarining muhim tomonlaridan biri shundaki, ular oldindan odamlardan mahsus kayfiyatni vujudga keltiradi. Chunki tabiatning joylanishi, o‘zgarishi u yaratgan go‘zalliklar va noz-u, ne’matlar so‘zsiz kishilar diqqatini tortib, hursandchilik, shodlik va bayram kayfiyatini olib keladi. Masalan: o‘quvchilar bir necha oylab bahorni sabrsizlik bilan kutishadi. Bahorning kirib kelishi tabiatning mo‘l-ko‘l libosga, gullarga burkanishi har bir kishi qalbiga ko‘zallik tuyg‘usi, baxtiyorlik va bayram kayfiyatini olib keladi. Dunyoning deyarli ko‘pchilik xalqlarda tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘liq bahor bayramlari eng yirik bayram sifatida kelishi bejiz bo‘lmasa kerak.

Tabiat bayramlari haqida fikr yuritar ekanmiz, ularni shartli ravishda ikki turga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki tabiat bayramlarining bir qismi insonning tabiatdan foydalanishi uchun o‘zlashtirishi uchun qilingan mehnati asosida vujudga keladi. Bu xildagi bayramlarga “Ona yer sahovati”, “Qovun sayli” kabi hosil bayramlari kiradi. “Yosh tabiatsevarlar” bayramida Boshlang‘ich ta‘lim maktabilar, “Yoshlar markazi” bolalar uyushmalari kabi joylarda tuzilgan eng yaxshi tabiatsevarlar uyushmalari, gulchilar uyushmasi, akvariumchilar va qushchilar to‘garaklari, kaktuschilar uyushmasi, tabiiy mahsulotlardan kompozitsiya yaratish to‘garaklari tabiatsevarlar devoriy gazetolari, tabiatni va o‘lkani o‘rganish uyushmalari o‘z faoliyatini namoyish etadilar. Ular orasida turli harakterdagi ko‘rik-tanlovlar, chunonchi, eng yaxshi devoriy gazetalar ko‘rigi, tabiiy materiallar yog‘och, somon, daraxt barglari va hokazolardan yasalgan asarlar tanlovi: bolalar tomonidan yetishtirilgan kaktuslar, gullar va boshqa bezakli o‘simliklar, akvariumchilar va qushsevarlar ko‘rgazmasi uyushtiriladi.

Keyingi vaqtlarda Boshlang‘ich ta‘lim maktabi o‘quvchilari orasida gerbariydan, jumladan, tabiiy mahsulotlardan, daraxt tomirlari, barglari, somon kabilardan chiroyli tuzish yaratish faoliyatiga qiziqish kuchaygani sababli ularga “Yosh tabiatsevarlar bayrami”ga katta e‘tibor berilmoqda. Tabiiy mahsulotlarni o‘zgartirish, qayta ishlash va ulardan turli kompozitsiyalarni yaratish borasida uyushtirilgan ko‘rgazma-konkurslar yosh tabiatsevarlar fontaziyasi, topqirligi, badiiy didi, ijodkorligini keng namoyish qilmoqda. Qo‘qon shahrida o‘tqaziladigan “Tabiat in‘omi” bayrami shakl va mazmuni ahamiyatiga ko‘ra tabiat bayramlari orasida alohida o‘rin egallaydi. Uni boshqa tabiat bayramlaridan farqi shundaki, u birikib harakterga ega bo‘lib boshqa joylarda uyushtiriladigan “Gul bayrami”, “Qush sayli”, “Yosh tabiatsevarlar” ko‘rik tanlovlari obodonchilik tadbirlari, sabzovodkur-u bog‘bonlarning hosil bayramlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Gul va qush

bayramlari o‘simlik dunyosining eng chiroyli vakili – “Go‘zallik malikasi” – gullar, hayvonot dunyosining eng ajoyib vakili – qushlar hisoblanadi. Shuning uchun ham odamlar tabiat, o‘simlik va hayvonot dunyosining ikki alohida e‘zozlab, qushni tinchlik ramzi, gulni esa go‘zallik ramzi deb qabul qilishgan. Balki, shu sababdan, bo‘lsa kerak tabiat bayramlari ichida “Qushlar bayrami” va “Gullar bayrami” alohida o‘rin tutadi. Quyida respublikamizda tabiatning bu ikki vakiligi bag‘ishlangan bayramlarni uyushtirish tajribasiga murojaat etamiz.

Qush bayrami tabiatning go‘zal va ajoyib vakili qushga bag‘ishlangan tadbirlar haqida so‘z borganda avval ularning ikki xil bir-biridan farq qiladigan shakllari mavjudligi haqida gapirish kerak. Ularning birinchisi bolalar orasida qushlar uchib kelganda uyushtiriladi, ikkinchisi, qushsevarlar o‘zlari parvarish etayotgan “qanotli do‘stlari” bilan ko‘rik tanlovlarda qatnashayotgan xolatlarda vujudga keladi. Avval bolalar o‘rtasida oldindan mavjud bo‘lgan “Qosh bayrami”ga to‘xtalamiz.

Maskur “Qush bayrami” Boshlang‘ich ta‘lim maktabi bolalari, yosh tabiatsevarlar tomonidan bahorda o‘lkamizda ilk bor qushlar uchib kelayotgan vaqtda uyushtirilishi odat tusiga kirgan. Boshlang‘ich ta‘lim maktabilarida qushlarni kutib olishga bag‘ishlangan tadbir bayram quyidagicha o‘tkaziladi: qushlar uchib kelishga bolalar zoologiya va mehnat o‘qituvchilari rahbarligida oldindan tayyorgarlik ko‘rishdi: qushlar uchun inlar yasaydi, ularni tom tepalari va daraxtlarga o‘rnatishadi, jonli burchaklar tartibga solinadi; Boshlang‘ich ta‘lim maktabilarida qushlarning uchib keishiga bag‘ishlangan, adabiy, musiqali kompazitsiyalar uyushtiriladi; ba’zi bayramlarda yosh tabiat jonkuyarlari parvarishlayotgan sayroqi dekarativ qushlardan tashkil topgan ko‘rgazma namoyish qilinadi. “Qush bayrami” o‘tayotgan joyga brogan kishi “go‘zallik ertagi”ga kirib qolgandak bo‘ladi.

Chunki tustovularserjilo, turli rangli to‘tilar va boshqa qushlar go‘zalligibilan kishini mahliyo qiladi va qoyil qoldiradi.

“Gul bayrami” yangi tipdagi zamonaviy gul bayrami davr talabiga ko‘ra baynalminal hodisa sifatida 50-yillarning oxirida tabiat go‘zalliklarini himoya qilish dolzarb masalalariga aylangan bir vaqtda shahar va qishloqlarni gulzor va bog‘larga aylantirishga ko‘mak beruvchi ijtimoiy-madaniy tadbir sifatida vujudga keladi. Gul bayramlari dunyoda keng tarqalgan an‘analardan biridir. Ko‘pgina mamlakatlarda gullarga bag‘ishlangan, jumladan, Gretsiyada sunbul, Yaponiyada xrizantema, Fransiyada marvaridgul, Hindistonda atirgullarga bag‘ishlangan mahsus bayramlar mavjud. Gul bayramining asosiy maqsadi shahar, ko‘ch, hovli, muassasalar, korxonalar, Boshlang‘ich ta‘lim maktabilar, bog‘lar va hiyobonlarni ko‘kalamzorlashtirib gulzorga aylantirishga, manzarali va chiroyli gul navlarini ko‘paytirishga yordam berishdir.

Respublikamizning eng yirik va tantanali gul bayrami Namanganda o‘tishi hammaga ma‘lum. Go‘zal qalbli va nozik didli Namanganliklar tabiat chiroyini, uning bebaho an‘analarini azaldan qadrlab, ularga alohida muhabbat bilan qarashgan. Gul bayramining Namanganliklar hayotiga singib, yaxshi an‘anaga aylanib qolganligining sababi ham shunda bo‘lsa kerak. Shunday qilib zamonaviy gul bayrami ham respublikamiz hayotida yangi xalq an‘anasi sifatida o‘z o‘rnini topmoqda va taraqqiy etmoqda.

U kishilarni ekologik va estetik tarbiyasida muhim rol o‘ynashi bilan go‘zallik yaratish uchun mehnat qilishga undab, tabiatni himoya qilishda ommani ijtimoiy madaniy jihatdan aktivlashtirishga sharoit yaratib beradi. Boshlang‘ich ta‘lim maktabilarida gul bayramlari o‘tkazilishdan o‘quvchi yoshlarni nafis va go‘zal tabiat in‘omlaridan bahra olishga yordam beradi.

2.2. Boshlang'ich ta'lim maktab o'quvchilari dunyoqarashini shakllantirishda milliy bayramlarini o'rni

Malumki, mehnat tufayli inson hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan va taraqqiy etgan. Odamzod o'z taraqqiyoti erishgan barcha yutuqlar – bu mehnat tufaylidir. Xalqimizda “Mehnatdan kelsa boylik turmush bo'lar chiroylik”, “Mehnatning tagi rohat”, “Mehnat qilgan dur keltirar” degan maqollar bejiz yaratilmagan. Kishi o'z mehnatidan xursand bo'la olsa, u boshqalar uchun ham zarracha foyda bera olishini his qilsa, mehnatidan faxrlanish tuyg'usini his qiladi. Aynan qadimgi avlodlarning o'z mehnatidan shodlanishi, faxrlanishlari natijasida milliy bayramlari vujudga kelgan. Mehnatni sevgan, mehnatdan yaxshi natijalarga erishgan xalqlarning aynan milliy bayrami ko'p bo'lgan va ular yaxshi o'tgan. Azaldan mehnatkash o'zbek xalqi hayotida mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlar va bayramlarning mavjudligi tasodifiy emas. Hozirgi davrda ham O'zbekiston bayramlarining asosiy qismini mehnat bilan bevosita bog'liq bayramlar tashkil qiladi. Azaldan o'zbek xalqi bolalarni mehnat qilishga o'rgatib kelinadi, mehnatni sevishga o'rgatib, yangicha milliy bayramlari va an'analari tez hamda tabiiy ravishda singib ketmoqda. Hozirgi kunda mehnat sohalarida kasblarning ko'payishi natijasida milliy bayramlari va marosimlarining turlari ko'payib, mazmunan boyib bormoqda.

Boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda milliy bayramlari katta o'rin egallaydi. Chunki, ular mehnat qilishga bayramlar orqali qiziqishi oshadi. Boshlang'ich ta'lim maktabi bolalariga xalqning qadimdan dalalarda ish boshlanishi, ilk bor yerga urug' qadash munosabati bilan maxsus marosimlar uyushtirilishini o'rgatib shu bayramlarda ularni bevosita ishtirokchisiga aylantirish zarurdir. Chigit qadash tantanalarining ijtimoiy-madaniy ahamiyati shundaki, unda paxtakorlarning ish boshlashi ham mehnat, ham bayram qilishadi.

Boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilarini paxta maydonlariga chiqib mehnat qiladi, xirmon yig'ishga yordam beradi. Shuning uchun ham har bir bayramlar ular uchun milliy bayramlariga qiziqish ortadi. Chigit qadash bayrami kishilarning yangi hosil yilini ko'tarinki kayfiyatda yaxshi niyatlar bilan boshlanishiga ko'mak beradi. G'oz gulini paxtakorlar mehnatining "guli" deyishadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, g'ozaning ilk bor gullashi paxtakorlar hayotidagi eng quvonchli kunidan biri hisoblanadi. Bu xursandchilikni haqiqiy namoyon bo'lishi uchun maxsus sharoit yaratish va uni tadbir haqiqiy sifatida nishonlash zarurdir. Tadbir o'tkaziladigan joylar maxsus bezatiladi, to'rga katta paxta guli maketi va uning ikki cheti paxtakorlar va g'oliblarni sharaflaydigan so'zlar bilan bezatiladi. Tadbir tantanali ochilgandan so'ng, musiqa sadolari ostida birinchi gul topgan qaxramon va g'olib brigade a'zolari taklif qilinadi. Ularga bag'ishlab kuy-qo'shiqlar va raqslar ijro etiladi. Badiiy qism orasida ularga so'z beriladi. Bayram yakunida kecha mehmonlari va g'olib jamoa a'zolari ma'naviy va madaniy taqdirlanadi. Birinchi paxta gulini marosimining ahamiyati shundaki, ilg'or paxtakorlarning mehnatini sharaflaydi, maroqli dam olish uchun sharoit yaratib beradi. Bu esa paxtakorlarning yanada yaxshi mehnat qilishlari uchun ko'mak beradi.

Hosil bayramlari barcha qishloq xo'jalik xodimlarining bog'bonlari, sabzavotkor, g'allakor-u, paxtakor, sohibkor-u, pillakorlarning yil davomida erishgan g'alabalarini mehnat mavsumining to'planishini tantana qilinadigan yirik anjumani hisoblanadi. O'zbekistonda asosiy xom-ashyo paxta bo'lgani va asosiy e'tibor paxtachilikka qaratilgani uchun bu yerdagi hosil bayramlariga "Paxta bayrami" deb ham nom berishgan.

Keyingi yillarda "Hosil bayramlari" yana tiklandi. Shu sababli bu bayramlarni uyushtirish borasidagi keyingi 10 yillar ichida to'plangan tajribani umumlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. 60-80-yillarda

“Paxta bayrami” yig‘im terim tugagandan so‘ng, butun respublika paxta plani va majburiyati bajarilgani yillari avvalo kolxozlar, so‘ngra tuman va shahar va nihoyat, poytaxtga katta tantana bilan nishonlanadigan bo‘lgan edi. Jamoa miqyosida o‘tkazilgan hosil bayrami plani majburiyati bajarilishi bilan dala shiyponi, choyxona, oshxona kabi joylarda bazm, konsertlar uyushtiriladi. Paxtakorlar xilma-xil taomlar, shirin-shakar mevalar tortilgan maxsus dasturxonga taklif qilinadi. Xo‘jalik raxbarlari, veterinarlar, ilg‘or ishchilar so‘zga chiqib, paxtakorlarni g‘alaba bilan tabriklaydilar. So‘ngra badiiy havaskorlarning chiqishlari uyushtiriladi. Tuman miqyosida uyushtiriladi hosil bayrami odatda tantanali majlis bilan boshlanadi. Unga xo‘jaliklar aro musobaqa g‘oliblari, mehnat veteranlari ilg‘or terimchilar taklif qilinadi. G‘oliblar moddiy rag‘barlantiriladi. Bayramning markaziy qismi sifatida teatrlantirilgan tomosha mehnatkashlarini g‘oyatda qiziqtiradi. Respublika miqyosida o‘tkaziladigan hosil bayrami paxta plani to‘lgan yillarni eng yirik markaziy ijtimoiy- madaniy anjumani sifatida Toshkentda o‘tkaziladi. Respublika hosil bayrami tumanlaridan kelgan ilg‘or paxtakorlar va qishloq xo‘jalik xodimlari hamda shaharlik ishchi xizmatchilar, talabalar, Boshlang‘ich ta‘lim maktabi o‘quvchilarning tashrifi bilan boshlanadi. Bayram ishtirokchilariga qishloq xo‘jalik yarmarkalarida, savdo do‘konlari, turli taomlar va boshqa madaniy- maishiy tadbirlar tashkil qilinadi. Mehmonlar karnay sunray sadolari ostida kutib olinadi.

Shunday qilib biz yuqorida Ozbekistonning faxri bo‘lmish paxtakorning mehnati va bo‘sh vaqti asosida vujudga keladigan bayramlar, undagi har bir tantanalari va dam olish tadbirlarini uyushtirish borasidagi ilg‘or majburiyatlar, samarali usullar, yo‘l-yo‘riqlarga to‘xtaldik. Shuni unutmaslik kerakki hayot taqozo etayotga va yil davomida sistemali uyushtirilayotgan bayramlar orqali paxtakorlar hayotini quvonch va shodlik, yuksak mehnat bilan to‘ldirish, ularni ma‘naviy rahbatlantirish

muvaffaqiyatli va sharaflı ishdır. Ma'lumki, qishloq xo'jalik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan barcha kasb egalari, paxtakor-u g'allakorlar, sohibkor-u pillakorlarning hayoti va mehnatiga bag'ishlangan an'analar orasida hosilni yig'ishtirib olish musobaqalari bilan o'tkaziladigan marosim va bayramlar alohida o'rintutadi. Dehqonlarning yil bo'yi mehnat qilib mo'l-ko'l hosil yig'ishtirib qishloq xo'jalik ishlarining tugallanishi qadim zamonlardan buyon to'y sayil va bayram sifatida nishonlab kelingan. Ular o'rtasida poliz mahsulotlar pishgan yillik hosilni yig'ishtirib olish munosabati bilan o'tkaziladigan bayram "Qovun sayli" alohida o'rin tutgan. Zamonaviy "Qovun sayli" O'zbekistondagi hosil bayramlari ichida o'ziga xos o'rin tutib, poliz mahsulotlari pishganda nishonlanadi. Bu bayramining o'tkazilish usullari ham ko'pgina bayramlarga o'xshaydi. Sayllarda qovun, tarvuzlarning eng yaxshi navlaridan ko'rgazma, tanlovlar viktorinalar hamda poliz mahsulotlari yetishtirishda erishilgan tomoshalar sayillar uyushtiriladi. Eng yaxshi qovun yetishtirgan mirishkorlar maxsus mukofotlar bilan taqdirlanadi. Qovun sayli yarmarkalari o'tkaziladi.

2.3. Oilada bolalarni milliy axloqiy va estetik tarbiyalash

Estetik tarbiya hayot va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idrok etish hamda tushunishni rivojlantirish, estetik hissiyotlar, fikr-mulohazalar va didlarni, san'at hamda hayotdagi go'zallikni yaratishda qatnashish mahoratini, ehtiyojini tarbiyalash estetik tarbiyaning umumiy tarbiya tizimi va jamiyat taraqqiyotining tarkibiy qismidir. Estetik tarbiya insonda rivojlangan estetik his-tuyg'u, did, idea, qarashlar, estetik faoliyat malakalari, badiiy madaniyat qadriyatlarini anglash va baholash qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir. Estetik tarbiya bolaning yoshlik davridan boshlanishi kerak. Musiqa, gullar, suratlar dastlabki estetik kechinmalarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, avvalo, ularning ko'rish va eshitish, baholash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Buning uchun ashula, raqs, rasm solish, haykalchalar yasash mashg'ulotlari keng qo'llaniladi. Maktabda estetik tarbiya o'quvchilarning barcha turdagi o'quv-tarbiya ishlari, ayniqsa, ona tili va badiiy adabiyot, ashula hamda rasmni o'rganish jarayonida vujudga keladi. Estetik tarbiya axloqiy va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Estetik tarbiya masalalarini hal etishda o'tmishdagi estetik tarbiyaning ijobiy an'analariga tayanadi. Estetik tarbiya mustaqil jamiyat ma'naviy ehtiyoji muhim xususiyatini tashkil etadi. Kishida hayotning haqiqiy go'zalligidan zavqlanish qobiliyatini, qobiliyatni garmonik rivojlantirishga intilishni tarbiyalash, insonni ma'naviy jihatdan fazilatli qilishga qaratilgandir. Estetik tarbiya yosh avlod xulq va turmushi madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Estetik tarbiyaning barcha sohalari san'at bilan uzviy bog'liqdir. San'atdagi ehtiyoj, uni tushunish, badiiy ijodda faol qatnashishni ta'minlash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifalaridan biridir. O'z navbatida, san'at ham biror maqsadga qaratilgan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.

Yoshlarning estetik tarbiyasida madaniy ma’rifat muassasalarining ishi katta rol o’ynaydi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo’lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmuni va maqsad yo’nalishlarini to’la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san’at yordamida shakllantirishdir. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya san’at bilan chegaralanib qolmay, balki uning asosiy mazmuni insonning voqyelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Estetik munosabat hayotga iste’molchilik nazari bilan qarashdan xalos bo’lish, dunyoga keng va xolis qarash, odamlar, tabiat voqyea-hodisalari, narsalar, eng avvalo jamiyat, insoniyat taraqqiyot uchun xizmat qiladigan fazilatlarni ko’ra olish qobiliyatlarni tarbiyalaydi.

Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonida uni axloq, mehnat va ekologik jihatlardan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi. Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyaga ta’siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, bejarazlikdan ajramagan holda amal qiladi. Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bo’liqligi esa tabiat va jamiyatga hamohang bejaraz munosabatlarni o’rnatishda namoyon bo’ladi.

Estetik tarbiya, eng avvalo, odamlarning estetik didlari, shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Shaxsning o’zligi uning estetik didi orqali namoyon bo’ladi. Estetik did insonning aqliy va hissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehhtiyojlari, maqsadlarini ro’yobga chiqarishda ifoda-lanadi. Shunday qilib, estetik tarbiya-bu estetik jihatdan rivojlangan va faol bo’lgan inson shaxsini shakllantirishdir. Estetik tarbiya shaxsning shakllanishiga katta va har tomonlama ta’sir ko’rsatadi. Eng avvalo, san’at asarining idrok etish tajribasi ijodiy, obrazli tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Murakkab va takrorlanmas voqyea hisoblangan badiiy asar nozik xayoliy bo’lanishlarni shakllantiradi, tafakkurni boyitadi va chuqurlashtiradi. So’z, ayniqsa,

shoirona soʻz hissiyotni, tasavvur va xayolni takomillashtirib, hissiyotni ifodalash qobiliyatini chuqurlashtiradi.

Bilishning turli shakllaridan foydalanish tajribasi oʻquvchida badiiy ijodiy qobiliyatni rivojlantirishni izga solib turuvchisiga aylanib qoladi. Tajriba qancha kam boʻlsa, rivojlanish darajasi ham shunchalik past va aksincha, u qancha koʻp boʻlsa rivojlanish darajasi ham shuncha yuqori boʻladi.

Pedagog talabalar bilan samarali muloqotda boʻlish uchun quyidagi fazilatlarga ega boʻlishi kerak boʻladi, chunki talabalar shu fazilatlarni oʻzlariga oʻzlashtirib oladilar.

1. Talabaning mustaqil fikri, irodasi, hayajoni, qiziqishini rahbatlantirish va rivojlantirish.

2. Talabaning ichki dunyosiga kirish, oʻzgarish-larini payqay olish.

3. Fikr-tuyhularni aniq, jonli, obrazli ifodalash.

4. Emosional-irodaviy taʼsir koʻrsatish.

5. Talaba va pedagog oʻzaro ichki muloqotda boʻlishi estetik tarbiyada katta rol oʻynaydi.

Bundan tashqari, hozirgi bosqichda estetik tarbiyaning koʻpgina masalalari quyidagi faktorlarga boʻhliq ravishda yangicha qoʻllanmoqda.

1. Tarbiya masalalariga kompleks yondashish nazariyasi va uni hal etish metodikasi.

2. Hozirgi bosqichda yoshlarga estetik ruhda tarbiya berishda mafkuraviy taʼlim tarbiyani takomillashtirish xususiyatlari.

Oliy oʻquv yurtlarida estetik tarbiya shaxsda oʻrta maktabda shakllangan ijobiy tomonlarini qatʼiy qaror toptirish va oʻstirish prinsipi asosida quriladi. Estetik tarbiya hozirgi vaqtda jismoniy va aqliy mehnatga, ijtimoiy va davlat hayotining turli sohalarida, fan va madaniyat sohalarida, faol layoqatli boʻlgan ongli kishilarni tarbiyalash va tayyorlashni nazarda tutadi.

O'quv darslarini o'tish jarayonida estetik tarbiyani singdirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi, ilmliligi, jamoada erishgan muvaffaqiyati ham muhim rol o'ynaydi. Darsdan bo'sh vaqtlarda sayohatlar uyushtirish orqali ham estetik tarbiyani singdirish mumkin.

Bulardan tashqari yoshlarni estetik tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan qonuniy, ma'rifiy meros: «Qur'oni karim» va Hadisi Sharif hamda boshqa axloqiy didaktik asarlardan foydalanish va ularning mahzini chaqish ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Xalq qo'li bilan yaratilgan amaliy san'at asarlarini ko'rsatish ham yoshlarni estetik tarbiya-lashda muhim o'rin tutadi.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan biri san'at haqida fikr bildirib, unla badiiy asarlarni tanlash va ulardan foydalanish usullarini ko'rsatish, mahalliy materiallardan foydalanish yo'llarini o'rgatish, san'at turlari, teatr, musiqa, raqs, me'morchilik va boshqa san'atlar badiiy havaskorlik shakllaridan foydalanish san'atning estetik tarbiya berishda asosiy manbalardan biri ekanligini misollar orqali ifoda etsa yanada foydaliroq bo'lishi mumkin. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishda xizmat qiladi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan hozirgi paytda estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omilining ortib borishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayapti. Hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan odamlarning ezgu xislat-fazilatleri, ongligi, faolligi, ijodiy yaratuvchi qobiliyatlari sezilib turibdi. Ikkinchidan, O'zbekiston aholisining aksariyati umumiy madaniyati yuksalib borish jarayonida yangi texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashib borayapti. Uchinchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlarida bozor iqtisodining keng o'rin egallab borayotganligi, qonunchilikning keng tarzda rivojlanib, amal qilayotganligi, fuqarolarning umumiy madaniyati, ayniqsa,

estetik madaniyati darajasining ham yuksalib borishini taqozo etadi. To'rtinchidan, hozirgi davr ilmiy texnik inqilobi sharoitida elektronika, avtomatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratib berayapti. Beshinchidan, radio, kino ayniqsa, oynai jahon kabi ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o'rin olishi natijasida badiiy axborot hajminig ham keskin ortib borishi estetik tarbiya ahamiyatining tez suratlarda o'sishini ta'minlaydi.

Estetik tarbiya o'z diqqat-e'tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi. Xilma-xil va o'ta murakkab talab-ehtiyojlarni birlashtiradi. Shunday qilib estetik tarbiya estetik orzu mos keladigan voqyelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir. Unda estetik tarbiya vositalaridan san'at asarlari, estetik ijod va amaliyot, nazariy va ilmiy asarlar, ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida qaror topish jarayonida fuqarolar tafakkurini yangilash va tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Shaxsning estetik rivojlantirishning dastlabki sharti va boshlanhich bo'hini bolada yoshlik chohidayoq tuhilib o'sgan uyning go'zalligi va u bilan bevosita bohliq bo'lgan tabiat go'zalligiga dil tuyhusini shakllantirishdan iboratdir.

Hayot bilan tabiat uyhunligi haqidagi dastlabki bolalik taassurotlari eng chuqur taassurotlar bo'libgina qolmay, balki eng nafis taassurotlar-ki, ular insoning hayotdagi maqsadlariga to'hridan-to'hri ta'sir ko'rsatadi. Ularga estetikaning o'ziga xos tarbiyaviy shakllari, omillari va vositalaridir. Estetik tarbiya omillari deb shaxsning estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga aytiladi. Estetik tarbiya vositalari deb, shaxsning voqyelikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy

faoliyat shakllariga aytamiz. Mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili hisoblanadi. Mehnat takomillashgan sari ularning ko'ngilli va ijodiy tabiati ortib boradi. Qoloq ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida har qanday mehnat turi shaxsga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun baxsh etish omili shaxsni estetik kamol toptirish bilan birga shaxsning foydali ishlar bajarishga safarbar qiladi. Natijada estetik mazmun mehnat unumdorligi va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanadi.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili bu tabiatdir. Tabiat butun tabiiy xilma-xilligi bilan bizni o'rab turgan dunyo demakdir. Dunyo tabiati u xoh tundra bo'lsin, hoh to'g'lar, hoh taqir cho'l insonga eng go'zal tabiat bo'lib tuyuladi. Jonli va jonsiz tabiat o'zining murakkab qonunlari asosida yashaydi va rivojlanadi. Musavvirlar va yozuvchilar tabiatni tasvirlar ekanlar, bizni faqat yorqin, ulu'vor, yaqqol, qudratli narsalarni ko'rishgagina undamasdan, ko'zga unchalik tashlanmaydigan narsalarni ham tasvirleydilar. O'simlikning rivojlanishini, hayvonlar hayotini kuzatgan vaqda qanchadan qancha hayratomuz va go'zal narsalarini kashf etish mumkin. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Estetik tarbiya omillari qatorida maishiy turmush, ayniqsa, turar joy jihozlari, xonalar, binolar joylashuvi, ularning ranglari, bo'yoqlari ham alohida o'rin tutadi.

Estetik tarbiya vositalari orasida san'at muhim o'rin egallaydi. San'at voqeyelikka estetik munosabatning eng muhim shaklidir. San'at estetik tarbiya vositasi sifatida har bir shaxsga mo'ljallanganligi bilan dunyoga keng va ochiq ko'z bilan qarash tuy'husini shakllantirish, nafosatni bevosita mushohada etish, yuksak orzu-umidlar yo'lida ijodkorlik qobiliyatini vujudga keltirish bilan izohlanadi.

Mustaqillik davrida estetik tarbiyani isloh qilishning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari vatan, yurt, millat va uning madaniy merosi go'zalligini anglatish estetik tarbiyaning asosiy tarbiyasi vositasidir.

Estetik tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri sifatida san'at nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki, ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishda jamiyat a'zolari, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik didning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlan-tirishga olib keladi.

Estetik tarbiya vositalaridan yana biri estetik nazariyadir. Estetik nazariya estetik orzuga ta'sir o'tkazadi va bilim doirasini kengaytiradi. San'atga intilib yashash, badiiy ijod mahsulini idrok etish, zavq olish ko'p jihatdan saviyaga bo'g'liqdir. Estetik tarbiyada badiiy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, teatr, kino muhim rol o'ynaydi.

Estetik tarbiyaning muhim vositalaridan biri adabiy tanqid bo'lib, u h'oyat murakkab ijtimoiy maqomga egadir. Adabiy-badiiy tanqid bir vaqtning o'zida san'at va fanga xizmat qiladi. Adabiy badiiy tanqid badiiy idrok madaniyatini shakllantirishga, san'at asarini ishonchli tarzda baholash qobiliyatini rivojlantirishga, ularning his-tuyg'uli va nazariy tomonlarini qo'shib in'ikos etishga xizmat qiladi.

Bulardan tashqari estetik tarbiya tizimida oila va maktab, ishlab chiqarish jamoalari, mafkura muassasalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy siyosiy va ommaviy tashkilotlar, madaniy muassasalar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, estetik tarbiyada oila va maktabning o'zaro hamkorligi yaxshi natijalarga olib keladi.

Inson tabiatida uning ezgulik va go'zallikka intilishida etika bilan estetikaning uzviy birligi asos bo'lgandir.

Xulq-atvor estetikasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: xushmuomilalik, odob, kamtarlik, hurmat, atrofdagilar bilan yaxshi


muloqotda bo'lish, o'z fikr va tuyhularini grammatika nuqtai nazaridan to'g'ri ifodalash. Kiyimga bo'lgan estetik talablarni bilish va ularga rioya qilish ham katta rol o'ynaydi. Maktab va oila xulq atvor estetikasini tarbiyalashda asosiy manbadir.

O'zbekiston fuqarolarining estetik ongini yanada shakllantirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo'lib, jamiyat badiiy madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiyada ishontirish, namuna, tajriba, kuzatish metodlari bir-biriga bohliqdir. Bunday metodlarni amalga oshirishda san'at asarlari estetik ijod va amaliyot, nazariy va ilmiy asarlar, ta'lim-tarbiya tizimi, ijodiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi.

Prezident Islom Karimov oila tarbiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 5 yilligiga bag'ishlangan majlisdagi tabrik so'zi (1997 yil 7-dekabr)da "... oila hayotining abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan shu bilan birga kelajak asrlar qanday inson bo'lib yetishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir" va yana "har bir aqlli insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi- qobil farzandlar o'stirish, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir". Deb bildirgan fikrlari oila tarbiyasi uchun muhimdir.

Axloq, xulq va atvor so'zlari arabcha bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi

yurish-turishi, tartib qoidalarining yig`indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatlarda axloq namoyon bo'ladi.



Ma`lumki har bir inson o`zidan keyingi avlodning davomchisi bo`lmish farzand ko`rishi va farzandni aql - xushli, el - koriga yaraydigan, ilimli, bilimli mo`minqobil bo`lishini xohlaydi. Bunday fazilatlarni mujassamlashtirgan holda tarbiyalashning zamirada esa mehnat tarbiyasi yotadi. Mehnatsiz esa qanday tarbiya usuli bo`lishidan qat`iy nazar samara bermaydi. Shuning uchun, har tomonlama yetuk barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining ro`li va o`rni beqiyos kattadir. Insonning turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog`liqdir. Shu sababli, mehnat butun moddiy va ma`naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotning negizidir. Oilada mehnat tarbiyasi orqali axloqiy tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi uning shaxs sifatida ulg`ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o`z aqlini, irodasini, hissiyoti, harakterini rivojlantirishi, shaxs sifatida shakllantirishi mumkin. Oilada bolani ahloqiy tarbiyalashda yoshligidan boshlab bir ishga o`rgatish, kichik vaqtidanoq bir yumish berib ish qilishga odatlantirishga e`tibor berilgan. Natijada, bolalar ishga ko`nikish, sevish, ishga berilish hissi uyg`ongan, rivojlanib borgan. Unda yashashga asosi mehnat ekanligi haqida tasavvur shakllana boradi. Bolada hayotda yashashning asosi mehnat ekanligini bilib,

o`zi erkin ishlasin, xatolarini ko`rib, uni tuzatishga harakat qilsin. Ishlaganda, ishning natijasini o`ylab to`g`ri fikr yuritishga, to`g`ri ishlashga, g`ayrat qilishga o`rgana boshlaydi.

Farzandlarimiz mustaqil O`zbekistonimizning bo`lg`usi quruvchilaridir. Shu sababli kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa hujjatlarda ularni mehnatga qay darajada tayyorlashga alohida e`tibor berilmoqda, shunday ekan, mehnat farzandlarimiz uchun ham zarurat, ham burch bo`lishi, buning uchun uyda ham, o`quv yurtlarida ham, mehnat qilish uchun sharoitlar yaratilishi lozim. Agar bola kichikligida mehnat qilishga hech bir qiyinchiliklarsiz o`tadi. Bu jarayonda kattalarning ibrati muhim ro`l o`ynaydi.

Farzandlarimiz kichik yoshdan maishiy mehnat va ijtimoiy mehnatga ishtirok etadi. Mehnat tarbiyasida yutuqlarga erishishda yoshlarni mehnatga ham ruhan, ham axloqan, ham amaliy jihatdan tayyorlash lozim. Shuning uchun bolani yoshi va imkoniyatlariga mos mehnat turlarini bajarishga jalb qilmoq lozim. Haqiqiy mehnat muhiti hukmronlik qilgan ko`p oilalarda bolalarni maktabgacha yoshida ham kuchiga qarab uy-ro`zg`or mehnatga jalb etadilar. Bu idish-tovoqni yuvish, xonalarni tozalashda ishtirok etish, xonaki o`simliklarni parvarish qilish va boshqa ko`plab narsalardan iborat bo`lishi mumkin. Bolaning imkoniyatiga qarab ota-onalar ularga ishning mohiyati va karakterli xususiyatini batafsil tushuntiradilar, kerak bo`lganda yordam beradilar, muvoffaqiyatsizliklar oldida muruvvatli ko`rsatadilar, muvoffaqiyat va yutuqlarni taqdirlaydilar. Bu esa bolada o`ziga ishonch, hurmat xissini shakllantiradilar. Mehnatga psixologik, ahloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o`quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatlilik kabi axloqiy irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi, o`quvchilarda jamoatchilik bilan birga mehnat qilish ko`nikmalarini hosil qilish lozim. Chunki inson butun hayoti davomida ko`pchilik bilan mehnat qiladi. Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o`tadiga, uning tafakkuri, hayotga

munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma`naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi mehr-oqibat tuyg`ularini tarbiyalaydigan o`ziga xos maskan bo`lib hisoblanadi. Mehnatsevarlik-dastlab o`zini o`rab olgan kishilar namunasi ta`siri ostida odatdagi taqlid qilishda bolaning o`yin yoki boshqa faoliyatlaridagi o`z o`y va fikrlarini, niyatlarini keyinroq- o`z maqsad va ideallarini amalga oshirish uchun mehnatning inson hayotidagi mohiyatidagi anglab olish natijasida ilk bolalik davrida shakllana boshlaydi.

Bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirishda ota-onalar, oila hal qiluvchi ro`l o`ynaydi. K.D. Ushunskiy “haqiqiy ravishda ota-onalarning bolalarga qoldiradigan merosining eng yaxshi merosi pul ham emas, buyum ham emas hatto bilim ham emas insoniyat baxtining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadigan mehnatsevarlikni tarbiyalashdir”¹ –deb yozga edi.

Mehnat orqali ahloqiy tarbiyalash masalalari bo`yicha o`rta osiyolik mutaffakkir olimlar bizga meros bo`lib qolgan ma`rifiy asarlar katta o`rin olgan. Masalan, buyuk O`zbek shoiri Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakkam insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko`tarinki ruh bilan madh etgan. Yoshlarni sidqi dildan mehnat qilishga mehnatni qadrlashga chaqirgan.

“Buyuk alloma Bahovuddin Naqshband”ning “Dilba yori dast ba kor” bugungi kunda ham o`z qadrini yo`qotgani yo`q.

Yoshlar mehnat sevar bo`lib tarbiyalanish bilan birga, bir vaqtda inson qo`li bilan yaratilgan narsalarni qadrlashga, ardoqlashga va uni uvol qilmaslikka chaqirgan. Uvolning oqiboti gunoh bolishi ajoyib o`gitlarda, xalq- og`zaki ijodida ham keng o`rin olgan. Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy farovonlik manbai bo`lib qolmay, yoshlarda yaxshi xulq va ma`naviy sifatlarni vujudga keltiradi: loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf

etib, kishida quvonch va mamnunlik xislarini paydo qiladi. Bolalarda yoshlikdan samimiylik, ezgulik va boshqalarga yaxshilik qilish kabi xususiyatlarni mujassamlashtirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Birovga yaxshilik qilish esa albatta mehnat orqali amalga oshiriladi. Birovga yaxshilik qilib olqish olgan bola esa avvalo o`zida mamnunlik xis etadi va bu ishni unda odat tusini oladi. Bola oilada mehnat ko`nikmalarni ko`proq hosil qilsadagi faqat oiladagi mehnat tarbiyasi bilan qoniqib qolishi kerak emas, chunki har xil sharoitlardagi va muhitdagi oilalar bo`ladi, bo`zilarda ota-ona kun bo`yi ishda bo`lishadi. Ular bir vazifa buyirib ketishi mumkin, lekin ularda nazorat qilish imkoniyatlari bo`lmaydi shuning uchun bolaga yuklatilgan vazifani bajarib, to`la-to`kis ado etgan bo`lsa, albatta uni maqtab qo`yishimiz lozim. Chunki, bola bunda ruhlanib u o`zida mehnatga bo`lga ishtiyoq uyg`onadi.

Mehnat turlarini tanlashda bolalar mehnati oldiga qoyiladigan maqsad avval o`ng`ay, soddaroq, bolalarga tushunarli, yaqin bo`lishi keyin esa asta sekin qiyinlashib, murakkablashib borishiga amal qilishi lozim.

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishga amaliy tayyorlash va shu bilan birga axloqiy, aqliy va estetik tarbiya`ning muhim tarkibiy qismi bo`lib hisoblanadi. Mehnatni faqat jismoniy ish deb xato tushunish ham yaramaydi. Bolani dars qilishga undash ham mehnat. Uning to`garaklarga qatnashishiga, biror hunar sohiblarining huzurida bo`lishga, sport musobaqalarida qatnashishga ham keng yo`l ochish kerak va uning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishga vaqt topa bilish lozim. Tarbiyada bolani bajarga ishini e`tibor berib muvovoffaqiyatlari o`z vaqtida ruhlantirib turilsa yaxshi samara beradi. Mehnat qilgan kishi o`zi bajarayotgan mehnatning natijalarini ko`rsa, undan qoniqsa, rohotlansagina tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`ladi. Mehnat jarayonida do`stlik, birodorlik, jamoa bo`lib ishlash, madaniyat, ma`rifat barcha tarbiyaviy sifatleri shakllana

boradi. Eng muhimi mehnat muhtojlikdan, yurak siqilishidan ahloqiy buzilishdan saqlanadi.

Mehnat faoliyati o`z funksiyasiga monand ijtimoiy harakterga ega u kishilarni yashash manbaigina bo`lib qolmay balki uning jarayonida shaxs shakllanadi hamda unda har bir shaxs o`zini har tomonlama namoyon qiladi. Mehnat- davlat, jamiyat-xalq , har bir oila va shaxsning borligi kelajagi, ravnaqi belgilab beruvchi asosiy mezon hisoblanadi. Har bir inson, xalqning mehnatga bo`lgan munosabati va mehnat faoliyatining mahsuliga qarab uning asl qiyofasini har tomonlama aniqlash mumkin.

A.K.Munavvarov ta`kidlaganidek, “Mehnat zamirida shaxsning axloqiy sifatlari-mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, suvni isrof qilmaslik, saxiylik har bir so`mning qadriga yetish, qahramonlik, mehnat baxt keltirishini anglash kabilar qaror topadi”. 25-26-betlar.

Qadimgi ajdodlarimiz inson faqat o`z halol mehnat orqali jamiyatda o`z o`rinini topishi jamoa, kishilar o`rtasida obro izzat ko`rishini yaxshi bilishgan xalq pedagogikasida tariflanishicha, “...yosh avlodni mehnat faoliyatiga ahloqiy- psixologik tayyorlash ...” eng asosiy muommolardan biridir bu masalani hal qilishda ko`p tomondan mehnatni shaxsni jinsi, yoki xususiyatlari, oiladagi “sotsial statusiga” qarab taqsimlanishi va bajarilishi muhim ahamiyat kasb etgan. O`zbek oilalarida turli og`ir mehnatga erkaklar, maishiy xizmat, ya`ni uy ro`zg`or ishlariga xotin-qizlarni tayyorlashgan. Mehnatning bunday jinsiga qarab tabaqalashtirilishi oiladagi ahloqiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga asosiy omil bo`lib xizmat qiladi. Natijada, jamiyatning asosini tashkil qiluvchi oila ota rahbarligi, ona hamkorligi va bolalarning faol funksiyalari orqali buzilmas qo`rg`on shakliga keltirilgan bo`lib, moddiy va ma`naviy boyliklar hamda tarbiyaviy ta`sirlarning manbasiga aylangan. Shunday qilib mehnatning ijtimoiy axloqiy ahamiyatga alohida e`tibor berish, mehnat o`quvchining yoshi, hayot tajribasi

va imkoniyatlariga mos bo`lishi ularning mehnat faoliyatlariga ijodiy harakatda bo`lishi o`z vaqtida turli kasblar haqida ma`lumotlar berib borilishi, mehnat ahllari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish katta ahamiyatga egadir.

Xulosa

Jamiyatda keyingi yillarda ro‘y berayotgan jiddiy o‘zgarishlar, albatta, xalq turmushining tarkibiy va muhim qismi, madaniyatining asosiy shakllaridan biri, shodlik va quvonch manbai hamda hayotdagi yirik voqealar, sanalar va yutuqlarni nishonlashga yordam beradigan bayramlarga qayta nazar solishni taqozo qiladi. Ma’lumki, qatog‘on va turg‘un yillari davomida ajdodlarimizning ming yillar davomida nishonlab kelgan bayramlari tazyiqqa uchradi, hayotdan chetga surildi, taqiqlandi, bayramlarning ko‘pi mamlakat tepasida turgan rahbar shaxslar mavqeini mustahkamlaydigan, obruyini oshiradigan va siyosatni targ‘ib qiladigan vositaga aylantirildi. Ularda xalqona odatlar, samimiy shodiyonalar, sevimli ommabop tomoshalar o‘rniga maqtovbozlik, dabdababozlik, balandparvoqlik, xo‘jako‘rsinlik, ura-urachilik kabi illatlar taraqqiy etdi. Bu bayramlar ko‘proq siyosiy tadbirlarga aylantirilib yuborildi. Haqiqiy bayram xalq ehtiyoji asosida sodir bo‘lishi unutilib qo‘yildi.

Shukurlar bo‘lsinki, keyingi vaqtlarda, aniqrog‘i 1990-yildan boshlab bu sohada katta ijobiy siljishlar sodir bo‘la boshladi, taqiqlangan xalq bayramlari tiklandi, hayitlar erkin nishonlana boshladi. Bu esa xalq ruhiyati va milliy qiyofasi tiklaniishiga asos bo‘ldi. Biroq bu ishlarni hali debocha sifatida baholasa bo‘ladi, oldindan xalq bayramlari istiqbolini belgilash borasida chuqur o‘ylanadigan va bajarilishi lozim bo‘lgan yumushlar ko‘p...

Bu sohadagi asosiy muammolar: o‘zbek xalq bayramlarini va ularning an’anaviy tuzuklarini tiklash, O‘zbekiston bayramlarining yangi yilnomasini tuzishdir. Bu suveren, mustaqil bo‘lgan O‘zbekiston uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘z xususiy, tarixiy bayramlariga ega bo‘lmagan xalqni ham, mustaqil davlatni tasavvur qilish qiyin.

Albatta, xalqaro huquq, shartnomalar va do‘stlik aloqalari hurmat qilinadigan hamda Suveren davlatlar ittifoqi a‘zosi bo‘lgan O‘zbekistonda

xalq xohishi va ehtiyoji asosida umumxalq, umumittifoq bayramlari (yangi yil bayrami, xalqaro xotin-qizlar kuni 8-mart, xalqaro birdamlik kuni 1-may, xotira kuni 9-may) nishonlanishi mumkin. Biroq baynalminal mazmunga ega bo'lgan bu bayramlarni O'zbekistonda nishonlash uchun ularni mahalliy an'analar bilan boyitib, xalq ehtiyojiga mos usul bilan boyitib, xalq ehtiyojiga mos usul va shakllarda tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining kelajakda buyuk davlat bo'lishi va uni ta'minlash yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi novbatda oilada boshlanadi.

Ota-ona farzandlariga go'zal xomiy va nasihatgo'y bo'lishlari lozim. Bunday go'zal momila farzand bilan ota-ona orasidagi mehr muhabbatni yanada kuchaytiradi.

Farzandlarning go'zla odobli-axloqli, tarbiyasi bo'lishlari uchun, avvalo, ota-onalarning o'zlari go'zal hislatga ega, o'rnak bo'lishlari shart. Bu uy ahli ya'ni ota-ona, o'g'il va qizlarning birgalikdagi totuvlik bilan yashashlarida muhim omildir.

Sharq mutaffakkirlari inson, uning shaxsi va ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, shuningdek, unda mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, aqliy jihatdan kamolotga yetishini ta'minlash, unda nutq madaniyati, so'z sana'ti shakllantirishi, yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalash ma'salalarini o'rganishga katta ahamiyat berganlar. Ular insonni har tomonlama barkamol, b ilimli bo'lishini istaganlar. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari metodologik xususiyatga ega bo'lib, nafaqat ular yashagan davrda, balki bugungi kunda ham ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Hozirgi davrning salmoqli ta'siri natijasida oilalarning ijtimoiy tarkibi ham o'zgarmoqda, bu esa o'z navbatida oila tarkibida, turmush va uning qiyofasida jiddiy o'zgarishlarni vujudga keltirimoqda.

Bu esa o`z navbatida, o`zbek oilalarida bunday tarkibiy o`zgarish, yangidan munosabatlar tarixiy tarkib topgan milliy o`ziga xoslikni yo`qotishgini emas, balki oilalardagi munosabatlarning har tomonlama rivojlanishiga, ko`p millatli respublikamiz aholisi urf-odatlarini an`analarining uyg`unlashuviga, mazmunan boyishiga sabab bo`lmoqda. Oilada bolalarni to`g`ri tarbiyalash, ota-onalarning va katta yoshdagi barcha kishilarning namunada bola shaxsini shakllantirish, uning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, jamoa o`zini tuta bilishiga tayyorlovchi omildir. Yosh avlodning qiziqish va tirishqoqligi, mehnatsevarligi birinchi novbatda oila va undagi tarbiyaviy holatlarga bog`liqdir.

O`zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni, tarbiyaning kundalik va istiqbol rejasi, bolalarga ta`sir o`tkazish vositasini tanlash va undagi unumli foydalanish o`ziga xos xususiyatga ega: chunki uning asosida xalq an`analari yotadi.

O`zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan foydalanishi har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim ro`l o`ynaydi.

Ahloqiy tarbiya uchun muhim ahamiyatga molik bo`lgan shartlardan biri o`g`il-qizlarning o`z ota-onalari mehnat faoliyati haqidagi tushunchalardir. Farzandlar o`z ota-onalarining qayerda, kim bo`lib ishlayotganliklaridan tashqari qanday ishlayotgani, o`z mehnat jamoalaridagi mavqei, mehnat do`stlari, mehnat faoliyatiga doir an`analardir, yutuqlari, rag`batlantirilishi kabilarni yaxshi bilsalar, ularga nisbatan taqlidchanlik xissi o`sadi va bu hol o`quvchining o`qish mehnati va faolligiga katta ta`sir etadi, uning sinf jamoasidagi mavqeini oshiradi. Muhim pedagogik jihati shundaki bu tushuncha o`quvchini intizomli bo`lishiga yaxshi o`qishiga ilhomlantiradi.

Modomiki jamiyatimizning ertangi me`morlari bo`lgan bugungi yosh avlodlarni tarbiyalashda zarur bo`lgan mehnat tarbiyasini qo`shib olib borish,

bugun siz-u, bizga yuklangan ekan, demak uning boshqa turli usullarini qidirib topish ham bizning zimmamizda. O`zlarida mehnat tarbiyasini yaxshi o`zlashtirgan kishilargina yosh avlodni mehnat tarbiyasi bilan bog`lab tarbiyalashdek ulkan vazifani bajarishlari oson kechishi mumkin.

Foydalanilga adabiyotlar ro`yxati.

1. I.A.Karimov. “Biz o`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz”. T. “O`zbekiston”. 1999.
2. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. Ma`naviyat. 2008.
3. M.O. Ashurov. “Milliy tarbiya asoslari” (Ma`ruzalar matni). Samarqand 2004.
4. A. Fitrat. “Oila va olamni boshqarish tarbiyalari”. T. 1999.
5. O. Musurmonova. “Oila ma`naviyati-milliy g`urur”. T. “O`qituvchi” 1999.
6. Otavaliyeva. “Bola tarbiyasida bog`cha va oila hamkorligi”. T. 1994.
7. M.Ochilov. “Muallim qalb-me`mori”. T. “O`qituvchi” 2001.
8. A.Usanov. “Oila pedagogikasi”. Samarqand 2005.
9. M.Xalimatov. “Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog`lom avlod tarbiyasi”. T. “O`zbekiston” 2000.
- 10.A. Junnunov. “Oilada bola shaxsini shakllantirish”. T. “O`zbekiston” 2006.
- 11.“O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyasini o`rganish”. T. “O`zbekiston” 2001.
- 12.N.R.G`aybullayev, R.Yodgorov, R.Matqulova. “Pedagogika”. T. 2005.
- 13.G.B.Shoumorov. “Oila psixologiyasi”. T. 2001.
- 14.www.pedagog.uz.